



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 6 (1605), 2026-yil 10-yanvar, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

O‘ZBEKISTON ARMIYASI

tinchlik kafolati, milliy g‘urur ramzi

Vatan himoyasi har birimiz uchun muqaddas burch. Ona Vatanni qo‘riqlash, kerak bo‘lsa ko‘ksini qalqon tutib uni himoya qilish shu aziz va muqaddas yurtida yashayotgan har bir er-yigit uchun sharaf timsoli. Zero, Vatan taqdiri, el-yurt himoyasi uchun o‘zini kamarbasta qilganlar haqiqiy yurtparvar o‘g‘lonlardir.



Mamlakatimizda keyingi yillarda mudofaa sohasida davlat va jamiyat manfaatlarini ta‘minlash yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Pirovardida Qurolli Kuchlarimizning jangovor shayligi va

tayyorgarligi darajasi yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Sohada kadrlar tayyorlash tizimi tubdan yangilandi.

Umuman olganda, bugun xalq va armiya birdamligi amalda ta‘minlanib,

yoshlarimizning armiya saflarida ona Vatanni himoya qilishdek ezgu maqsadga ishonchi, qiziqishi ortib bormoqda. Harbiy yo‘nalishdagi o‘qituvchilarning asosiy vazifasi ham Vatanni jon-jonidan sevuvchi,

uning ravnaqi va ozodligi uchun elim, yurtim deb yonib yashaydigan mard o‘g‘lonlar, o‘zbek vatanparvarlarini tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat.

Davomi 2-betda

YANGI O‘ZBEKISTON KELAJAGINI BUGUN, BIRGALIKDA YARATAMIZ

Taraqqiyot odimlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida “Mirzo Ulug‘bek bobomiz bundan olti asr muqaddam insoniyat uchun yulduzlar xaritasini yaratgan edi. Bugun esa biz hozirgi va kelajak avlodlarimiz uchun baxtli hayotga olib boradigan yo‘l xaritasini yaratishimiz lozim” degan so‘zlari xalq manfaatlarini yo‘lida ko‘z o‘ngimizda olib borilayotgan tizimli islohotlarga ramziy qiyos bo‘ldi.

Boisi, yulduzlar xaritasi insoniyat tafakkurining yorqin nigohi, odam qadam bosolmaydigan osmon kengliklarining aql, mehnat va ilm yordamida zabt etilgan makonidir, Mirzo Ulug‘bek ilmni afsonadan ajratgan holda, inson aqlining cheksiz imkoniyatlarini dunyoga namoyon etgan.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi to‘qqiz yilda amalga oshirilgan shu kabi ishlar ham o‘z-o‘zidan emas, avvalo, davlatimiz rahbari boshchiligidagi olib borilgan mashhaqqatli va sharaflil mehnat, maqsadli va amaliy islohotlarning hosilasi, islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishning mahsulidir.



Shu jihatdan navbatdagi Murojaatnoma ortga qaytmas islohotlar shiddatini, amaliy ishlar va xalqaro e‘tiroflarni o‘zida namoyon etgan holda istiqboldagi maqsadlarning tayanch nuqtasi, zamonaviy o‘zgarishlar sari qo‘yilgan mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi muqarrar. Eng muhimi, islohotlar samarasini har bir mahalla, har bir xonadon, har birimiz kundalik hayotimizda his qilmoqdamiz.

Murojaatnomada keltirilgan har bir raqam ortida mamlakatimiz va xalqimizning taqdiri va farovonligi, inson huquq va manfaatlarini to‘laonli ta‘minlash va hayot darajasini yanada yaxshilash bilan bog‘liq islohotlar samarasi mujassam.

Davomi 3-betda

Xushxabar



TARIX YANGILANDI

12 yoshli o‘zbek qizi shaxmat bo‘yicha ayollar o‘rtasida sport ustasi bo‘ldi

Mamlakatimizda sportning barcha turi, jumladan, shaxmatni rivojlantirishga qaratilayotgan e‘tibor samarasi bugun yoshlarning jahon sport arenalarda ko‘rsatayotgan shonli g‘alabalarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Salohiyatli o‘zbek farzandlarining nomi yana dunyo shaxmat sahnasida yangray boshladi. Iqtidorli shaxmatchimiz Sarvinoz Bekmurodova xalqimizga unutilmas, g‘ururli hissiyotni hadya etdi. U atigi 12 yoshida FIDEning ayollar o‘rtasidagi sport ustasi unvoniga loyiq ko‘rildi.

Sarvinoz O‘zbekiston shaxmati tarixida bu darajaga erishgan eng yosh qiz sifatida tarix zarvarqlariga kirdi. Erishilgan

g‘alaba ma‘naviy taraqqiyot, Uchinchi Renessansga qo‘yilgan ulkan poydevordir. Yangi O‘zbekistonning kelajagini mana shunday yoshlar quradi. Sarvinozning bu yutug‘i millionlab yoshlarni ruhlantirib, katta rag‘bat beradi. Kelajakda shaxmat bilan shug‘ullanadigan o‘g‘il-qizlar yanada ko‘payishi, sportimiz tarixi sahifalari ularning yuksak intellektual tafakkuri mahsuli bo‘lgan ulkan g‘alabalari bilan boyishi shubhasiz.



Tarixiy tajriba erkin fikr va mustaqil harakat yo‘q jamiyatda iqtisodiy o‘rinish ham, ijtimoiy barqarorlik ham bardavom bo‘lmagligini ko‘rsatadi. Shaxs o‘z g‘oyasini erkin amalga oshirish imkoniyatiga va kafolatga ega joyda taraqqiyot barqaror; o‘rinish esa uzoq muddatli bo‘ladi. Shu bois, tadbirkorlikni faqat iqtisodiyot tarmog‘i sifatida emas, balki jamiyat tafakkurining oynasi, davlatning fuqarosiga ishonchi darajasini aks ettiruvchi muhim mezon sifatida baholash zarur.



Sarhisob

TADBIRKORLIK —

2025-yil sarhisobiga nazar solganda, tadbirkorlarga yaratilgan imtiyoz va imkoniyatlar ortida faqat iqtisodiy samara emas, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning sifatidagi o‘zgarishlar ham ko‘zga tashlanadi. Bugun tadbirkor nazorat qilinadigan subyekti emas, balki qo‘llab-quvvatlanishi lozim bo‘lgan ishonchli hamkor sifatida e‘tirof etilmoqda. Bu yondashuv taraqqiyot yo‘lida tanlangan og‘li, mas‘uliyatli va insonparvar siyosatning amaliy ifodasidir.

Davomi 4-betda

Odamlar orasida Yakkabog‘ tumani markazida zamonaviy shaharcha bunyod etilishi haqida xabar tarqaldi. Avvaliga bunga ko‘pchilik ishonmadi. Boisi, shu paytgacha sanoqligina ikki qavatli binolarni aytmaganda, tumanda baland imorat yo‘q edi. Shu bois, bu gaplarga odamlar unchalik e‘tibor bermadi.

Orzular SHAHARCHASI

Yakkabog‘ ko‘rkiga ko‘rk qo‘shmoqda

Ammo bir oz vaqt o‘tib, tuman markazidagi Ayg‘irko‘l mahallasidagi bo‘sh turgan maydonda katta qurilish boshlab yuborildi. Qad rostlayotgan binolarni ko‘rgan kishining dili yavraydi. Qisqa fursatda uy-joyga ehtiyoji borlar yangi xonadon xarid qilishga shoshildi. Shu tariqa tumanda “Yangi O‘zbekiston” massivi barpo etildi. Hozir to‘liq foydalanishga topshirilgan hudud markazga ko‘rk qo‘shib turibdi.

Davomi 2-betda



IQTISODIY IMKONIYATLAR VA RUHIY INTILISHLAR YO‘LI



Obod manzillar





14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

O‘ZBEKISTON ARMIYASI

tinchlik kafolati, milliy g‘urur ramzi



Boshlanishi 1-betda

Qayd etish kerakki, mustaqillikning ilk yillaridanog zamonaviy talablarga javob bera oladigan, professional, harakatchan va yuqori samarali armiya yaratishga kirishilgan bo‘lsa, keyingi yillarda milliy armiyamizni dunyoning eng sara mudofaalari darajasiga olib chiqish borasida katta qadamlar tashlandi. Asosiysi, mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish borasida olib borilgan ishlar, tinimsiz izlanishlar tufayli yurtimizda zamon talablari darajasidagi kuchli armiya tashkil etilishiga erishildi. Ayni paytda bu armiya Vatan chegaralarini himoya qilish bilan cheklanib qolmasdan, kelajak avlod uchun matonat va fidoyilik namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yana sanoqli kunlardan keyin 34 yilligi nishonlanadigan armiyamiz murakkab, ammo sharaflı yo‘lni bosib o‘tdi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, Qurolli Kuchlarimizning shakllanish jarayoni dunyoda va mintaqamizda murakkab harbiy-siyosiy vaziyat hukm surgan davrga to‘g‘ri keldi. Islohotlarimiz natijasida mamlakatimiz xavfsizligi va xalqimiz osoyishtaligini ta’minlashga qodir bo‘lgan, har tomonlama zamonaviy qurollangan, qudratli armiyamiz shakllanmoqda.

Qurolli Kuchlarimizning bugungi salohiyati ushbu so‘zlarning naqadri to‘g‘ri, haqiqatga mos ekanligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

O‘zbekiston Qurolli Kuchlari nafaqat milliy xavfsizlikni ta’minlash, balki xalqaro arenalarda ham o‘z kuch va yuqori salohiyatini muvaffaqiyatli tarzda namoyon etmoqda. Bunga misol, 2022-yilda o‘tkazilgan nufuzli Xalqaro armiya o‘yinlari (ArMI)da O‘zbekiston jamoasi ikkinchi o‘rinni egalladi. O‘shanda harbiylarimiz 7 ta oltin, 10 ta kumush va 5 ta bronza medalini qo‘lga kiritgan edi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarimiz “Xavfsiz muhit”, “Qurolsoz usta”, “Dala oshxonasi”, “Yo‘l patruli”, “Snayper yo‘nalishi”, “Sodiq do‘st” kabi xalqaro musobaqalarda eng yuqori o‘rinni egallagan bo‘lsa, “Elbrus halqasi”, “Injener formulasi”, “Desant vzvodi” kabi musobaqalarda ham sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritdi. Mazkur musobaqalarda ular tomonidan 22 ta shaxsiy va jamoaviy rekordlar o‘rnatilgan.

Shu bilan birga, 2024-yilda O‘zbekiston Mudofaa vazirligi jamoasi Buyuk Britaniyada bo‘lib o‘tgan “Kembriya patruli” musobaqasida muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Bundan tashqari, 2024-yilda O‘zbekiston Mudofaa vazirligi jamoasi Janubiy Koreyada o‘tkazilgan ilmiy-harbiy tayyorgarlik bo‘yicha xalqaro musobaqalarning mutlaq g‘olibiga aylandi. Harbiylarimiz ushbu musobaqada taktik rejalashtirish va vazifalarni bajarishda yuqori darajadagi professionallikni namoyish etib, boshqa ishtirokchilarning hurmat va e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

O‘zbekiston Qurolli Kuchlari qardosh, xalqaro sheriklar bilan ham hamkorlikni faol rivojlantirmoqda. 2024-yilda Qozog‘iston hududida o‘tkazilgan “Birlestik — 2024” o‘quv mashg‘ulotlari doirasida o‘zbek harbiylari Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston harbiylari bilan birgalikda jangovar-taktik harakatlarni bajardi. Ushbu mashg‘ulotlarda quuruqlik, havo va dengiz bo‘linmalari o‘rtasidagi hamkorlikni takomillashtirishga qaratilgan taktik vazifalar amalga oshirildi.

Hindiston bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “Do‘stlik — 2024” o‘quv mashg‘ulotlari alohida ahamiyat kasb etadi. 2024-yilda “Termiz” poligonida ushbu o‘quv mashg‘ulotlarining beshinchi bosqichi bo‘lib o‘tdi. Mashg‘ulotlarda quuruqlik va harbiy havo kuchlari mutaxassislari ishtirok etdi. Asosiy e’tibor terrorizmga qarshi kurash va boshqa operatsiyalarga bo‘linmalar o‘rtasidagi muvofqlik va jipslikni oshirishga qaratildi.

2024-yilda Qozog‘iston Qurolli Kuchlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Hanjar — 2024” taktik maxsus o‘quv mashg‘ulotlari armiyamiz jangovar faoliyatida yana bir muhim voqea bo‘ldi. O‘n kunlik manyovrlar davomida “Forish” tog‘ poligonida binolarni tozalash, minomyotchilar, pulemyotchilar va snayperlarning harakatlari, shuningdek, jangovar bronetexnikani qo‘llash bo‘yicha amaliy harakatlarni bajarildi. O‘quv mashg‘ulotlari natijalari o‘zbek harbiylarining har qanday murakkab vazifalarni bajarishga tayyorligini yana bir bor isbotladi.

2018-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi Mudofaa doktrinası mamlakat harbiy siyosati

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



yo‘nalishlarini belgilab berdi. Doktrina Qurolli Kuchlarimiz himoyaviy xususiyatga egaligi va barcha davlatlar bilan tinch hamkorlikka intilishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy tahdidlarga javob berish uchun armiyaning jangovar shayligini yuqori darajada saqlash zarurligini alohida uqtiradi.

Milliy armiyaning rivojlanishidagi muhim bosqichlardan biri, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa sanoati bo‘yicha davlat qo‘mitasining tashkil etilishi bo‘ldi. Bu qo‘mita zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika yaratish hamda ishlab chiqarish uchun mas’ul bo‘lib, mamlakatning xavfsizligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

2023-yilda Prezidentimizning tegishli farmoniga muvofiq, Qurolli Kuchlarni raqamlashtirish dasturi amalga oshirila boshlandi. Qo‘shinlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari va zamonaviy aloqa vositalarini joriy etish orqali turli vaziyatlarda qaror qabul qilish samaradorligi oshirildi.

Ayni paytda modernizatsiya doirasida armiyamiz zamonaviy aloqa tizimlari, razvedka vositalari, uchuvchisiz havo apparatlari va bronetexnika bilan jihozlanmoqda. Shuningdek, harbiy xizmatchilar uchun uy-joy va tibbiy xizmat ko‘rsatish sohalarida ijtimoiy himoyani yaxshilash chora-tadbirlari ko‘rilmoqda.

Eng muhimi, o‘tgan davrda milliy armiyamiz yoshlarning irodasini toblaydigan, ularni o‘z Vatani va xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalaydigan jasorat va matonat maktabiga aylandi. Ularning harbiy xizmatga, el-yurti tinchligi va osoyishtaligi, sarhadlarimiz daxsizligini ta’minlashga bo‘lgan qiziqish va intilishi kuchaydi.

Bir so‘z bilan aytganda, ota yurtini, ona tuproqni himoya qilish mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqaroning muqaddas va sharaflı burchi hisoblanadi.

Alisher IKROMOV,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

Nuqtayi nazar

“

Mahalliy kengashlar tuzilmasidagi muhim o‘zgarishlardan yana biri — Prezidentimiz tashabbusi bilan xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari huzurida ekspertlik hamda yoshlar maslahat guruhlarining tashkil etilishi bo‘ldi.

MAHALLIY KENGASHNING SO‘ZI – TA’SIRCHAN, QARORLARI – NATIJADOR

Prezidentimiz parlament va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yaqin va o‘rta istiqbolga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari va strategik maqsadlarni belgilab berar ekan, ularning samarali ijrosini ta’minlashda xalq vakillari — deputatlar va senatorlarga katta ishonch bildirdi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki keyingi yillardagi demokratik islohotlar jarayonida Oliy Majlis palatalari va mahalliy kengashlar vakolatlari yanada kengaytirilmoqda.

Saidahmad USMONOV,
xalq deputatlari Samarqand viloyati
kengashi kotibiyati mudiri

uchun parlamentga kiritish mexanizmi joriy etildi. Shu asosida ikki mingdan ortiq muammo va murojaatlar tizimli ravishda o‘rganilib, ijobiy hal qilindi.

Senatning mahalliy kengashlar bilan hamkorligi nafaqat muloqot va amaliyot, balki konstitutsiyaviy va qonunchilik o‘zgarishlarida kengashlar vakolatlarini oshirish bilan ham bog‘liq. Agar 2020-2024-yillarda Senat bilan mahalliy kengashlar o‘rtasidagi hamkorlik ko‘proq nazorat va huquqiy mexanizmlar bilan chegaralangan bo‘lsa, hozirgi kunda ushbu munosabatlar amaliy muloqot, tajriba almashish, o‘qitish, muammolarni respublika darajasiga olib chiqish va strategik hamkorlikka aylandi.

Kuchli fuqarolik jamiyati ifodasi

Mahalliy kengashlar tuzilmasidagi muhim o‘zgarishlardan yana biri — Prezidentimiz tashabbusi bilan xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari huzurida ekspertlik hamda yoshlar maslahat guruhlarining tashkil etilishi bo‘ldi.

Mamlakatimizdagi demokratik jarayonlarning yangi bosqichini boshlab bergan bu tashabbuslar oddiy tashkili o‘zgarish emas, balki xalq va davlat o‘rtasidagi muloqot sifati oshishi, qarorlar qabul qilish jarayonlarining shaffoflashishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘tgan yil fevral oyida xalq deputatlari viloyati kengashi huzurida ekspertlik guruhi tashkil etilgandi. Yuqori malakali mutaxassislar: iqtisodchi, huquqshunos, qishloq xo‘jaligi hamda ijtimoiy soha vakillari, NNT a’zolari va boshqa ekspertlardan iborat guruh tuman va shahar kengashlari huzurida ham tuzildi.

Ekspertlik guruhlarining asosiy vazifasi kengash ishini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish. Ular tayyorlagan tahlil va xulosalar mahalliy kengashlarning har bir qarori zamidra chuqur asos hamda xalq manfaatini hisobga olgan holda ish yuritilishiga xizmat qilmoqda. Bu esa jamoatchilikning mahalliy kengashlarga ishonchini mustahkamlaydi.

2025-yil aprelda esa xalq deputatlari viloyati kengashi huzurida yoshlar maslahat guruhi tashkil etildi. Bu guruh yoshlarning fikri va tashabbuslarini to‘g‘ridan to‘g‘ri eshitish, ularning yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish, jamoat ishlarida faol ishtirokini ta’minlash va qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb qilish bilan shug‘ullanmoqda. Yoshlar maslahat guruhi yosh avlod uchun nafaqat maslahat berish, balki amaliy tajriba maydoni hamdir.

Bu o‘zgarishlar yurtimizning barqaror taraqqiyoti, kuchli fuqarolik jamiyati va mas’uliyatli mahalliy boshqaruv tizimini yaratish yo‘lida muhim qadam bo‘layotganini alohida ta’kidlash lozim.

Mahalliy kengashlar hudud taraqqiyotiga xizmat qiladi

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni bilan mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tashabbuskorligini yanada oshirish maqsadida bir qator vakolatlar xalq deputatlari mahalliy kengashlariga o‘tkazilishi belgilandi. Bu albatta, mahalliy kengashlarning hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirishdagi rolini kuchaytirishga katta turkii beryapti.

Mamlakatimizning kelgusi besh yildagi taraqqiyot strategiyasi belgilab berilgan Murojaatnomada esa olti muhim yo‘nalish bo‘yicha qayd etilgan vazifa va maqsadlarni amalga oshirishda mahalliy kengashlarning o‘rni har qachongidan boshqacha bo‘lishi tabiiy.

Umuman, yangi tizim, yangi huquqiy asoslar bilan ish olib borayotgan mahalliy kengashlar faoliyati hududlar hayotida muhim o‘rin tutayotgani, davlatimiz rahbari ilgari surgan g‘oya va tashabbuslarning qanchalik hayotiy va muhimligini amalda to‘la isbotladi. Muhimi, bu islohotlar davom etadi va mahalliy kengashlar tashabbuskor hamda nazoratchi organ sifatida ish yuritadigan tuzilmaga aylanadi.



Obod manzillar

Yakkabog‘ ko‘rkiga ko‘rk qo‘shmoqda

Boshlanishi 1-betda

— Bugun mamlakatimizning har bir hududi obod va go‘zal maskanga aylanib bormoqda, — deydi Yakkabog‘ tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Elbek Beknaye. — Ayniqsa, keyingi besh-olti yilda tumanimizda xayolimizga kelmagan o‘zgarishlar amalga oshiriladi. Bu farovonliklarning barchasi inson qadriini ulug‘lash uchun qilinayotgan ishlarning bir ko‘rinishi. “Yangi O‘zbekiston” massivida 2025-yilning o‘zida misli ko‘rilmagan bunyodkorlik ishlari bajarildi. Yirik loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, so‘nggi yillarda 18 gektar yerda 54 ta 5 qavatli, jami 1340 xonadonli ko‘p qavatli uy-joy qurilib, foydalanishga topshirildi. Majmuani barpo etish uchun 400 milliard so‘m sarflandi. Loyiha doirasida 15 ta 36 xonadonli, 1 ta 40 xonadonli, 38 ta 20 xonadonli uy-joy barpo etildi.

Shuningdek, budget mablag‘lari evaziga 15 milliard so‘mga 330 o‘rinli yangi maktab, 6,5 milliard so‘mga 120 o‘rinli bog‘cha va 1,7 milliard so‘mga mahalla binosi qurib foydalanishga topshirildi. Shu bilan birga, 15 ta ikkita kirish yo‘lakli ko‘p qavatli uy-joy, 1-qavatida 3750 kvadrat metr dan iborat tadbirkorlik subyektlari uchun binolar majmuasi shakllantirildi. Ushbu majmuada tadbirkorlarning 43 milliard so‘m mablag‘i hisobiga 45 dan ortiq tadbirkorlik subyekti tashkil etilib, 120 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Qolaversa, massivda ichimlik suv uchun 3,1 kilometr tarmoq va 2 ta inshoot hamda ogova suvga 8,4 kilometr tarmoq va bitta inshoot, 6 kilometr ichki yo‘l qurildi. Bundan tashqari 3,8 kilometrga issiqlik tarmog‘i, 1,5 kilometrda gas quvuri tortildi va 1 ta to‘qonxona qurildi. Ular uchun 6 ta taqsimlash punkti o‘rnatildi. 7,4 kilometr elektr tarmog‘i tortilib, uchta transformator qo‘yildi, 2,5 kilometr piodalari yo‘lakchasi qurilib, tungi yoritish chiroqlari o‘rnatildi. Bolalar uchun 8 ta o‘yingoh qurildi. 50 kVt quyosh panellari va 140 ming litr sig‘imga ega 700 dona geliokollektor o‘rnatildi.

Keltirilgan raqamlar, bajarilgan yumushlar oddiy ishdak ko‘rinishi mumkin. Ammo bu yerdagi ulkan bunyodkorlikning guvohi bo‘lgan kishi tasanno aytishi shubhasiz. Ha, hozir o‘zgacha shahar ko‘rinishiga kelgan bu manzil ilgari qarovsiz maydon edi desangiz hech kim ishonmaydi.

Belgilangan rejaga ko‘ra massivda ishlar hali to‘xtab qolgani yo‘q. Xususan, aholi va tadbirkorlarga qulay muhit yaratish maqsadida ko‘p qavatli uylarning 1-qavatiga tijorat banklari bo‘limlari joylashtirildi. Bundan tashqari, 15 ta ko‘p qavatli uy yerto‘lasida tadbirkorlar uchun 7500 kvadrat metr joy beriladi. Unda bosqichma-bosqich har xil turdagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari tashkil etiladi. Jami 150 ta yangi ish o‘rni yaratish rejalashtirilgan.

Yana bir gap. Mazkur massivda boshqa tuman va shaharlardagidan farqli ravishda yangilikka qo‘l urilgan. Yetakchi tadbirkor tashabbusi bilan yirik loyiha asosida

ekobozor tashkil etilgan. Qiymati 6 million dollardan ortiq bo‘lgan ushbu majmua uch qavatdan iborat. Unda 80 ta ish o‘rni yaratilgan. Muhimi, ekobozor aholisi uchun ham qulay savdo qilishga xizmat qiladi. Xususan, uning birinchi qavatida dehqonchilik mahsulotlarini sotish uchun yuzdan ziyod rasta joy olgan. Ikkinchi qavatida esa 106 ta kiyim-kechak do‘koni ishga tushirilgan. Uchinchi qavatida bolalar o‘yingohi hamda restoran faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Ekobozorimiz nafaqat “Yangi O‘zbekiston” massivida yashovchilar, balki tumanimiz aholisi uchun ham qulay savdo majmuasiga aylandi, — deydi “Kelajak renessans” MCHJ rahbari Maqsd Kamolov. — Hozir xaridorlar har bir kichik narsaga ham e’tiborli, bozor madaniyatiga jiddiy qaraydi. Shu bois, iloji boricha sharoit yaratishga harakat qilganimiz. Talab va takliflar o‘rganilib, har bir jihatni inobatga oldik. Xizmat ko‘rsatish to‘liq zamon talblariga mos tartibda. Hozir 250 dan ziyod ish o‘rni yaratildi. 2026-yil davomida yana qo‘shimcha loyihalarni ishga tushirishni reja qilganimiz. Shu orqali yana 50 ga yaqin kishi ishl bo‘ladi. Qolaversa, iste’molchilar uchun yanada qulayliklar yaratiladi.

Davlatimiz rahbari 2025-yilning iyun oyidagi Qashqadaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida mazkur ekobozor faoliyati bilan ham tanishganida mutasaddilarga bunday qulay savdo majmualarini boshqa tuman markazlarida va massivlarda ham ko‘paytirish kerakligi borasida ko‘rsatma bergan edi. Demak, kelgusida ekobozor nafaqat Yakkabog‘ tumanida, balki boshqa hududlarda ham barpo etilib, aholiga xizmat qilishni boshlaydi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



YANGI O‘ZBEKISTON KELAJAGINI BUGUN, BIRGALIKDA YARATAMIZ

”

**Mirzayusuf
RUSTAMBOYEV,***Jamoat xavfsizligi universiteti
boshlig‘i, yuridik fanlar doktori,
professor, O‘zbekistonda
xizmat ko‘rsatgan yurist***PREZIDENTIMIZNING****“BIZ — BUGUN 38 MILLIONDAN****ZIYOD KATTA XALQMIZ. MASHAQQATLI VA SHARAFLI****MEHNATIMIZ BILAN DUNYODA HURMAT TOPAYOTGAN,
ERTANGI KUNGA ISHONCH BILAN DADIL BORAYOTGAN,
MATONATLI VA G‘URURI BALAND MILLATMIZ” DEGAN
SO‘ZLARI QALBLARIMIZNI FAXR VA G‘URURGA TO‘LDIRDI.
BOISI, AHOLI NUFUSI NAFAQAT RAQAM, BALKI IQTISODIY
TARAQQIYOT, MA‘NAVIY BOYLIK VA INTELLEKTUAL QUDRAT
MANBAIDIR.**

“

Taraqqiyot odimlari**Boshlanishi 1-betda**

Zero, 2025-yilda tariximizda birinchi marta yalpi ichki mahsulotimiz 145 milliard dollardan oshgani buning yaqqol tasdig‘idir. Shu bilan birga, kelgusi besh yil davomida amalga oshiriladigan islohotlar natijasida bu ko‘rsatkichni 240 milliard dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan, buni bugungi hayotimizdan deyarli ikki karra yaxshiroq yashashimiz mumkinligini anglatuvchi asos desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Chunki yalpi ichki mahsulot mamlakat farovonligini belgilab beruvchi eng asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biridir. Uning doimiy o‘sib borishi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va investitsiya faoliyati kengayishi orqali aholi daromadlarining oshishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, ijtimoiy sohalar, xususan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi va aholi turmush darajasi hamda barqaror taraqqiyotning muhim mezonini hisoblanadi.

Shu bilan birga, xalqaro miqyosda mamlakatning iqtisodiy salohiyati, raqobatbardoshligi va investitsiyaviy jozibadorligini namoyon etib, barqaror o‘shish orqali xalqaro moliya institutlari, investorlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlaydi, O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni va nufuzini oshiradi hamda mamlakatning mintaqaviy va global jarayonlarda hamkorlik aloqalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

2025-yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard dollarga yetib, jami investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31,9 foizni tashkil etgan holda iqtisodiyotimiz kelgusi yillarda ham yuqori sur‘atlar bilan barqaror o‘shishi uchun zamin bo‘lmoqda. Mazkur ko‘rsatkichlar xalqaro reytinglarda ham e‘tirof etilib, yetakchi barqarorlik ta‘minlayotgani xalqaro miqyosda tan olinganidan dalolat beradi. Shu jihatdan reytingning oshishi mamlakatdagi boshqaruv sifati va iqtisodiy siyosat samaradorligiga berilgan ijobiy bahodir.

Bu, avvalo, O‘zbekiston iqtisodiyoti va moliyaviy tizimiga ishonch ortganining in‘ikosidir. O‘z navbatida, davlatning qarz majburiyatlarini vaqtida va to‘liq bajarish imkoniyatlari yaxshilangani, makroiqtisodiy barqarorlik ta‘minlanayotgani xalqaro miqyosda tan olinganidan dalolat beradi. Shu jihatdan reytingning oshishi mamlakatdagi boshqaruv sifati va iqtisodiy siyosat samaradorligiga berilgan ijobiy bahodir.

Shuningdek, mazkur baho xorijiy investorlar ishonchini kuchaytirishi, investitsiya oqimining kengayishi, tashqi moliya bozorlarida qarz mablag‘larini arzonroq shartlarda jalb qilish imkoniyatini yaratishi hamda tashqi savdo va iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yanada faollashtirishga zamin bo‘lishi bilan ahamiyatli.

Murojaatnomada qayd etilgan yana bir e‘tirof — Jahon banki e‘lon qilib boradigan davlatlarning texnologik yetuklik indeksida O‘zbekiston 71 pog‘ona yuqori ko‘tarilib, dunyoning TOP-10 ta mamlakati qatoridan joy olgani bo‘ldi. Mazkur indeks davlatlarning texnologiyalarni qabul qilish va ulardan samarali foydalanish darajasini baholovchi xalqaro reyting hisoblanib, mamlakatlarda internet infratuzilmasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, jamiyat hamda iqtisodiyotga joriy qilish darajasi va innovatsiyalarga kirish imkoniyatlari kabi ko‘rsatkichlarni qamrab oladi.

Bunday indeksda yuqori pog‘onaga ko‘tarilish mamlakatimiz uchun katta ahamiyatga ega, chunki bu — xalqaro miqyosda texnologik rivojlanish, raqamli iqtisodiyotni yo‘lga qo‘yish va innovatsiyalarga integratsiya darajasi haqida ijobiy natijadan dalolat beradi.

Murojaatnomaning lingvistik tahliliga ko‘ra, unda eng ko‘p, ya‘ni 49 marta mahalla so‘zi ishlatilib, islohotlar, yangiliklar va kelgusidagi ustuvor vazifalar ham aynan mahalla bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi.

Eng ahamiyatli jihati, 2026-yilning yurtimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”, deb e‘lon qilinishi jamiyat taraqqiyotini eng quyi bo‘g‘in — mahalladan boshlash g‘oyasining amaliy ifodasidir. Bu tashabbus orqali mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy salohiyatini oshirish, aholining muammolarini joyida hal

etish, fuqarolarni faol hayotga jalb qilishga keng yo‘l ochiladi. Zero, mahalla rivoji — oilalar farovonligi, yoshlar tarbiyasi, qo‘shnichilik munosabatlari va jamiyatda barqarorlikni mustahkamlashning asosiy kafolati hisoblanadi. Shu bois, bu nafaqat mahallaning, balki butun jamiyatning yuksalishiga xizmat qiladigan muhim bosqich sifatida dolzarb ahamiyatga ega.

Sharq allomalari jamiyat barqarorligini, avvalo, insonlar o‘rtasidagi yaqin ijtimoiy munosabatlarni bilan bog‘lagan. Abu Nasr Forobiy jamiyatning kamolotini qo‘shnichilik,

yaqin aholining suv ta‘minoti yaxshilangani, 867 ta “og‘ir” toifali mahalladagi 470 mingta xonadonga tomorqalarni sug‘orish uchun ilk bor suv yetib borgan yurtidoshlarimiz kundalik turmush tarzi yaxshilanganining dalolatidir.

Shu bilan birga, aholining Vatan ichra “vatanlik” bo‘lishi, ya‘ni uy-joy bilan ta‘minlanishi bo‘yicha islohotlar so‘nggi 9 yildagi eng asosiy, ilgari kuzatilmagan hodisadir. Arzon uy-joy dasturlari, ipoteka tizimining kengaytirilishi, ko‘p qavatli zamonaviy turar joy massivlarining barpo etilishi minglab oilalar, millionlab



“**Jadidlar ham mahallaning
aholini tarbiyalash,
bilim berish va axloqiy
kamolotini shakllantirishda
muhim ahamiyatga egaligini
ta‘kidlab, zamonaviy
bilim va ma‘naviyatni
keng targ‘ib qilish, xalqni
islohotlarga tayyorlash
va davlat barqarorligiga
xizmat qiluvchi jamiyat
modeli sifatida bilishgan.**

o‘zaro yordam va ma‘naviy birlikka tayanish orqali ta‘minlash mumkinligini ta‘kidlaydi va kichik jamoalar — inson tarbiyasi va axloqiy kamolotining ilk maktabi sifatida ta‘riflaydi. Imom G‘azzoliy esa qo‘shni haq-huquqlariga rioya qilishni jamiyat pokligi va tinchligining asosi deb biladi, zero, bu mahalla mohiyati bilan uyg‘undir.

Jadidlar ham mahallaning aholini tarbiyalash, bilim berish va axloqiy kamolotini shakllantirishda muhim ahamiyatga egaligini ta‘kidlab, zamonaviy bilim va ma‘naviyatni keng targ‘ib qilish, xalqni islohotlarga tayyorlash va davlat barqarorligiga xizmat qiluvchi jamiyat modeli sifatida bilishgan. Shu ma‘noda, mahalla Sharq tafakkurida faqat hududiy tushuncha emas, balki insonni jamiyatga bog‘laydigan, axloq va ma‘naviyatni shakllantiradigan muhim ijtimoiy makon sifatida talqin qilinadi.

Xorijiy tahlillarga ko‘ra, o‘zbek mahallasi bu — odatiy yashash hududi emas, balki jamiyatning ma‘naviy va ijtimoiy tayanch nuqtasi. Ko‘plab tadqiqotchilar mahallani “tirik ijtimoiy organizm” sifatida ta‘riflaydi. Bu jihatdan mahalla instituti milliy o‘zligimiz va qadriyatlar tutashgan makon va zamonaviy ijtimoiylashuv maskani sifatida dunyoda muqobili bo‘lmagan jamiyatning noyob modeli sanaladi.

Qayd etilganidek, 2025-yilda 188 ta mahalladagi 715 ming aholi yashaydigan xonadonlarga birinchi marta toza ichimlik suv kirib borgan, yana 2 million 300 mingga

Murojaatnoma mamlakatimizning bugungi holati va yaqin kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini aniq belgilovchi amaliy ahamiyatga ega dasturiy hujjatdir.

Birgina o‘tgan yilda 8 million 100 ming kvadrat metrli, 135 ming xonadondan iborat ko‘p qavatli uylar foydalanishga topshirildi, odamlarning o‘zi ham yashash sharoitini yaxshilash uchun 19 million kvadrat metr maydonda qurilish qildi. Shuningdek, biznes vakillari tomonidan 24 million kvadrat metr noturar joy obyektlari barpo etildi. Umuman, so‘nggi to‘qqiz yilda jami 210 million kvadrat metrdan iborat turar va noturar joy obyektlari foydalanishga topshirildi.

Shunday ekan, uy-joyga egalik nafaqat moddiy farovonlik manbai, balki insonning o‘z Vatanida munosib hayot kechirishga bo‘lgan haq-huquqning amaliy ifodasiga aylandi.

Eng asosiy natijalardan biri sifatida mamlakatimizda kambag‘allikni kamaytirish va yashash sifatini oshirish bo‘yicha olib borilgan amaliy chora-tadbirlarni qayd etish maqsadga muvofiq.

Davlat tomonidan ishsizlik va kambag‘allik bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish uchun kompleks dasturlar joriy etilib, iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha amaliy vazifalar bajarildi. Murojaatnomada aytib o‘tilganidek, 2025-yilda 5 million aholimiz daromadli bo‘ldi, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Bu orqali qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag‘allikdan chiqarilib, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla “kambag‘allikdan xoli” hududga aylandi. Ahamiyatli jihati, yurtimizda kambag‘allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushgani xalqaro e‘tiroflarga ham sazovor bo‘lmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi asosida “mahalla yetiligi” tizimining joriy etilishi mamlakat



o‘tkazishdan iborat. Bu O‘zbekiston uchun muhim strategik yo‘nalish, u nafaqat iqtisodiy o‘shish sur‘atini jadallashtirish, balki mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilashga zamin yaratadi. Tahlillarga ko‘ra, jahon bozorida faqatgina yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqaradigan davlatlar katta muvaffaqiyatga erishadi. Shu sababli ham barcha sohalarida texnologik va innovatsion yondashuvlar muhim ustuvorlikka aylanmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 240 milliard dollardan oshirish uchun eng to‘g‘ri yo‘l — barcha sohalarini texnologik va innovatsion o‘shish modeliga o‘tkazish hisoblanadi. Bunda joriy yil iqtisodiyotda 6,6 foiz o‘shishni ta‘minlab, yalpi ichki mahsulotni 167 milliard dollarga yetkazish prognoz qilinmoqda. Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, “Agar mehnat unumdorligi, energiya samaradorligi va tannarx bo‘ladigan raqamli ekotizim yaratiladi. Bu yosh mutaxassislarning kasbiga mos ish topishini osonlashtiradi, ish beruvchilarga esa zarur malakali kadrlarni tez va shaffof tanlash imkonini beradi hamda bandlik va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi uchun barcha imkoniyatlar bor”.

Yana bir muhim masala: mehnat bozoriga yiliga 300 ming oliy ma‘lumodli kadrlar kirib kelmoqda. Ularni daromadli ish bilan ta‘minlash ustuvor vazifa. Shuni inobatga olgan holda endilikda oliyog‘h bitiruvchilari va ish beruvchilar o‘rtasida ko‘priklar bo‘ladigan raqamli ekotizim yaratiladi. Bu yosh mutaxassislarning kasbiga mos ish topishini osonlashtiradi, ish beruvchilarga esa zarur malakali kadrlarni tez va shaffof tanlash imkonini beradi hamda bandlik va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi uchun barcha imkoniyatlar bor”.

Avvalo, yil nomidan kelib chiqqan holda mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Buning ahamiyati shundaki, mahalla infratuzilmasini takomillashtirish orqali yangi O‘zbekistonning barqaror, zamonaviy va insonparvar yuzi yaratilmoqda, davlat va fuqaro o‘rtasidagi aloqa yanada yaqinlashtiriladi, jamiyatda ishonch va hamjihatlik mustahkamlanadi.

2026-yilda tanlab olingan 33 ta tuman va 330 ta sharoiti og‘ir mahalladagi barcha muammolarni bir vaqtning o‘zida hal qiladigan tizim yaratiladi. Ularda bir vaqtning o‘zida tadbirkorlik infratuzilmasi ham rivojlantiriladi. Ushbu maqsadlar uchun barcha manbalar hisobidan 8,5 trillion so‘m mablag‘ ajratiladi.

Mahallani farovon qilishning eng muhim jihatlardan biri bu tuman byudjetlariga ajratiladigan mablag‘larni ko‘paytirish, odamlarni daromadli qilish bog‘liq. Bu borada shu yil 1-yanvardan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘idan tushumning Toshkent shahrida 5 foizi, qolgan hududlarda 20 foizi qoldirilib, mablag‘ning yarmi tumanlar byudjetiga o‘tkaziladi.

Bundan tashqari, daromadlarning prognozga nisbatan oshirib bajarilgan qismining 50 foizi, ekin yerlarini ijaraga berish va bozorlardan tushumlar ham to‘liq tuman byudjetiga beriladi. Viloyat, tuman hokimlariga samarasiz va bir-birini takrorlaydigan shtat birliklari qisqartirib, tejalgan mablag‘ni aholi o‘rtaga qo‘ygan masalalarni hal qilish uchun ajratishga ruxsat etiladi. Bu orqali tumanlar byudjetida yiliga 5 trillion so‘mlik qo‘shimcha mablag‘ shakllanadi va u mahallalar infratuzilmasini yaxshilashga sarflanadi.

Bular Prezidentimizning “Asosiy maqsadimiz — odamlarimizni doimiy daromadli qilishdan iborat. Puli bor odam yaxshi kiyinish va ovqatlanishga, sifati ta‘lim va malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga, mazmunli dam olishga, bir so‘z bilan aytganda, farovon yashashga intiladi” degan hayotiy so‘zlarining amalda tasdig‘ini topishiga zamin yaratadi.

Eng muhimi, 2026-yilda ilk bor mahalla infratuzilmasini rivojlantirish uchun 20 trillion so‘m viloyatlarning o‘ziga berilmoqda. Bundan tashqari, joriy yilda “mahallada sanoat va xizmat” loyihasi orqali 10 mingdan ziyod ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish loyihalarini ishga tushirish uchun 5 trillion so‘m kredit beriladi. Har bir mahallada 40 tadan mikroloyihami amalga oshirib, 360 ming aholini ishli qilish uchun mahalla bankirlari va hokim yordamchilariga yana 7,5 trillion so‘m resurs ajratiladi.

Bunday yondashuv mahalliy hokimliklarga ko‘proq moliyaviy mustaqillik berish orqali yo‘l, suv ta‘minoti, sog‘liqni saqlash, ta‘lim kabi muhim infratuzilma va xizmatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa mahallalarda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirib, aholi farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi, chunki daromadlar soliqlarning o‘rniga mahalliy byudjetlardan qoldiriladi va fuqarolarning o‘z tashabbuslariga yo‘naltiriladi.

Yana bir ustuvor yo‘nalish iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘shish modeliga

o‘tkazishdan iborat. Bu O‘zbekiston uchun muhim strategik yo‘nalish, u nafaqat iqtisodiy o‘shish sur‘atini jadallashtirish, balki mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilashga zamin yaratadi. Tahlillarga ko‘ra, jahon bozorida faqatgina yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqaradigan davlatlar katta muvaffaqiyatga erishadi. Shu sababli ham barcha sohalarida texnologik va innovatsion yondashuvlar muhim ustuvorlikka aylanmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 240 milliard dollardan oshirish uchun eng to‘g‘ri yo‘l — barcha sohalarini texnologik va innovatsion o‘shish modeliga o‘tkazish hisoblanadi. Bunda joriy yil iqtisodiyotda 6,6 foiz o‘shishni ta‘minlab, yalpi ichki mahsulotni 167 milliard dollarga yetkazish prognoz qilinmoqda. Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, “Agar mehnat unumdorligi, energiya samaradorligi va tannarx bo‘ladigan raqamli ekotizim yaratiladi. Bu yosh mutaxassislarning kasbiga mos ish topishini osonlashtiradi, ish beruvchilarga esa zarur malakali kadrlarni tez va shaffof tanlash imkonini beradi hamda bandlik va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi uchun barcha imkoniyatlar bor”.

Yana bir muhim masala: mehnat bozoriga yiliga 300 ming oliy ma‘lumodli kadrlar kirib kelmoqda. Ularni daromadli ish bilan ta‘minlash ustuvor vazifa. Shuni inobatga olgan holda endilikda oliyog‘h bitiruvchilari va ish beruvchilar o‘rtasida ko‘priklar bo‘ladigan raqamli ekotizim yaratiladi. Bu yosh mutaxassislarning kasbiga mos ish topishini osonlashtiradi, ish beruvchilarga esa zarur malakali kadrlarni tez va shaffof tanlash imkonini beradi hamda bandlik va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi uchun barcha imkoniyatlar bor”.

Ekologik muvozanatni ta‘minlash, “yashil” energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish ham dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu yo‘nalishda yirik korxonalarida filtr, tozalash inshooti va havoga chiqariladigan zararli moddalarni monitoring qilish stansiyalari o‘rnatiladi. Har bir hududda botanika va dendrologiya bog‘lari hamda 20 tadan soya-salqin sayr ko‘chalari barpo etiladi.

Muxtasar aytganda, ekologiya sohasiga 2026-yilda 1 trillion 900 milliard so‘m yo‘naltirilayotgani atrof-muhitni muhofaza qilish, havo va suv sifatini yaxshilash, yashil hududlarni kengaytirish hamda ekologik muammolarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, aholi salomatligi va kelajak avlod uchun barqaror yashash sharoitini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Murojaatnomada e‘tibor qaratilgan ustuvor yo‘nalishlardan biri zamonaviy davlat boshqaruvi va adolati suv-huquq tizimi borasidagi islohotlarimizni davom ettirishdir. Bunda joriy yildan boshlab Elektron hukumat platformasi tubdan yangilanadi, barcha davlat idoralarning mingdan ziyod davlat xizmatlari, 5 mingdan ortiq funksiya va vazifalari, 200 ta ma‘lumot bazasi va axborot tizimi, 100 mingdan ziyod davlat xizmatchisining mahalla, tuman, viloyat, respublika darajasidagi vakolatlari Yagona raqamli platformaga integratsiya qilinadi. O‘z navbatida, ushbu o‘zgarishlar ochiqlik va shaffoflik siyosatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Shuningdek, shu yil 1-yanvardan davlat xaridlarida ochiq, shaffof va adolati tizim yaratiladi. Bu orqali tadbirkorlarga 300 trillion so‘mlik kafolatlari bozorda tovar va xizmatlari bilan faol ishtirok etishi uchun katta imkoniyatlar eshigi ochiladi.

Umuman olganda, Murojaatnoma mamlakatimizning bugungi holati va yaqin kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini aniq belgilovchi amaliy ahamiyatga ega dasturiy hujjatdir. Unda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifati amalga oshirilishi jamiyatda ochiqlik va mas‘uliyatni kuchaytirib, barcha sohalarida izchil taraqqiyotni ta‘minlashga zamin yaratadi.

Kelgusi taraqqiyotimiz uchun ishonchli yo‘l xaritasi sifatida davlat idoralari, tadbirkorlar va keng jamoatchilikni yagona maqsad atrofida birlashtiradi. Yangi O‘zbekistonda barqaror, adolati va raqobatbardosh davlat sifatida rivojlantirishda dasturlamal bo‘ladi.



Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Jahon iqtisodiyotidagi beqarorlik, bozorlardagi keskin tebranishlar va global xavf-xatarlar sharoitida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat uchun strategik zaruratga aylandi. Soliq imtiyozlari, moliyaviy yengilliklar, kredit resurslariga keng yo'l ochilishi va huquqiy kafolatlarning mustahkamlanishi — bularning barchasi tadbirkorni himoya qilishga qaratilgan tizimli islohotlardir. Chunki bugun o'z ishini rivojlantira olgan tadbirkor ertaga yangi ish o'rinlari, barqaror daromad manbalari va ijtimoiy farovonlikni yaratishga xizmat qiladi.

Ishonch fenomeni

Jamiyatda “ishonch” degan tushuncha bor — u ba'zan qonun va farmondan ham kuchliroq ta'sirga ega. Chunki ishonch mavjud joyda tashabbus tug'iladi, tashabbus bor joyda harakat shakllanadi, harakat esa iqtisodiy o'sishga olib keladi. So'nggi yillarda tadbirkorlarga berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar aynan shu mantiqiy zanjirni hayotga tabiiq etmoqda. Davlatning tadbirkorga ishonchi uning ertangi kunga ishonchini mustahkamlab, barqaror rivojlanish uchun tayanchga aylanmoqda.

O'tgan to'qqiz yil O'zbekiston iqtisodiyoti tarixida faqat raqamlar bilan baholanaidigan davr emas. Bu yillar davomida iqtisodiy tafakkur o'zgardi, davlat va tadbirkor o'rtasidagi munosabatlar qayta shakllandi, eng muhimi, ishonch institutsional darajaga ko'tarildi. Ayniqsa, 2025-yil ana shu jarayonlarning mantiqiy yakuni, sinovdan o'tgan modeli sifatida namoyon bo'ldi.

Prezidentimizning “2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori iqtisodiy harakatlar yo'nalishini belgilab berdi. Ushbu hujjat bandlikni umumiy shior darajasida emas, balki aniq mexanizmlar, mas'ul subyektlar va hududiy kesimda amalga oshirishni nazarda tutdi.

Qarorda belgilangan 5 million 200 ming kishining bandligini ta'minlash vazifasi boshqichma-boshqich bajarildi. Bu jarayonda banklar ishtirokidagi mexanizmlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Banklar orqali ish bilan ta'minlash tizimi tadbirkorlikni iqtisodiy o'sishning asosiy drayveriga aylandi. Mazkur yerda asosiy masala faqat ish o'rni ochish emas, balki insonga ishonch bildirish edi. Davlat yaratgan sharoit fuqaroda “menga ishonilyapti”, degan his uyg'otdi. Aynan shu his tashabbuskorlikka va shaxsiy mas'uliyatni zimmasiga olishga undadi. Iqtisodiy o'sish aynan shu ichki ishonchdan boshlandi.

2025-yilda iqtisodiy siyosat mahallagacha tushirildi. Har bir mahallada belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar iqtisodiy jarayonning aniq manzilli bo'lishiga xizmat qildi. Tuman hokimliklari tadbirkorlarni joy va infratuzilma bilan ta'minlagan bo'lsa, banklar moliyaviy qo'llab-quvvatlovni zimmasiga oldi. Bu esa davlat, bank va fuqaro o'rtasidagi ishonchli hamkorlikni mustahkamladi.

Raqamli boshqaruv tizimining joriy etilishi ishonchni institutsional kafolatga aylantirdi. “online-mahalla.uz”, “bank-kredit.uz” va “soliq.uz” axborot tizimlarining integratsiya qilinishi vazifalar jirosini kunlik tahlil qilish imkonini berdi. Bu tizim faqat nazorat emas, balki mas'uliyatni his qilish madaniyatini ham shakllantirdi. Natijada fuqarolarning idoralar o'rtasida sarson bo'lishiga chek qo'yildi.

Yil davomida amalga oshirilgan “Mahalla loyihasi” dasturi ishonch iqtisodiyotining amaliy namunasiga aylandi. Ilgari oilaviy tadbirkorlikda o'zini oqlagan, ishonch qozongan fuqarolarga kattaroq hajmda va

uzoq muddatga moliyaviy resurslar ajratilishi ular faoliyatini yangi bosqichga ko'tardi. Har bir mahallada kamida 10 ta xonadon uchun taqdim etilgan “loyiha paketlari” orqali oilalar barqaror daromad manbaiga ega bo'ldi. Bu tadbirkorlikni tirikchilik darajasidan iqtisodiy taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi.

Ushbu jarayonda mahalla bankirlari amaliy ijrochilarga aylandi. Ular bank va aholi o'rtasidagi ko'priki bo'lib, startup g'oyalarning hayotga tabiiq etilishida hal qiluvchi o'rin tutdi. Iqtisodiy tashabbus birinchi marta shu darajada mahallada paydo bo'lib, shakllandi.

Davlat tomonidan tadbirkorga berilgan e'tibor jamiyatda tashabbus, mas'uliyat va barqarorlikni shakllantirdi. Iqtisodiyotda ishonch fenomeni aynan shu jihati bilan yangi O'zbekiston taraqqiyotining eng mustahkam poydevoriga aylanmoqda.

Yangi imkoniyatlar davri

Bugun yoshlarni davlat darajasida qo'llab-quvvatlash tasodifiy yoki mavsumiy siyosat emas, balki uzoqni ko'zlagan strategik tanlovdir. Chunki yoshlar — jamiyatning eng faol, eng harakatchan va yangilikka intilishdan charchamaydigan qatlami. Ularga yaratilgan sharoit, avvalo, iqtisodiyotning ertangi yo'lini belgilab beradi.

Yil davomida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash sohasida qilingan ishlar natijasida kichik sanoat zonalarida yangi ishlab chiqarish obyektlari barpo etildi. Ular yosh tadbirkorlarga imtiyozli shartlarda ijara va lizing asosida taqdim etildi. Bu esa biznesni noldan boshlayotgan yoshlar uchun eng katta to'siqlardan biri — infratuzilma masalasini hal qilishga ko'mak bo'ladi. Imtiyozli mikrokreditlar, moliyaviy ko'mak va maslahat xizmatlari bilan uyg'un bu tizim yil oxiriga kelib, yoshlar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirdi.

Ana shu jarayonda davlatimiz rahbarining 2025-yil fevraldagi qator muhim qarorlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Jumladan, “Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori yil davomida yoshlar siyosatidagi keng ko'lami ishlar uchun mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qildi.

Ushbu qarorga muvofiq, Yoshlar ishlari agentligi huzurida tashkil etilgan Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi yil yakuniga kelib, navqiron avlod uchun nafaqat moliyaviy manba, balki ishonchli hamkor, maslahatchi va qo'llovchi homiy sifatida faoliyat yuritdi. Yoshlar taqdim etgan tashabbuslar ekspertlar ishtirokida chuqur tahlil qilinib, ularning barqarorligi va istiqboli asosiy mezon sifatida baholandi. Bu esa yosh tadbirkorlarda rejalashtirish, hisob-kitob va uzoqni ko'ra bilish ko'nikmalarini shakllantirdi.

Shu bilan birga, tajribali ishbilarmonlarning kengash ishlari jalb etilishi tizimning ochiq va shaffof bo'lishini ta'minladi. Korruptsiya va tashif-bilishchilikka yo'l qo'ymaslik, qaror qabul qilishda xolislikni ta'minlash aynan shu yondashuv orqali amalga oshirildi.



Kengash a'zolarining kamida 30 foizi yosh tadbirkorlardan iborat bo'lgani esa qo'llab-quvvatlanayotgan loyihalarining zamonaviy, innovatsion va raqobatbardosh yo'nalishlarga asoslanishini kafolatlaydi.

Fevraldagi yana bir huquqiy-me'yoriy hujjat — “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaror ham muhim ahamiyatga ega. Unga muvofiq, “Yoshlar biznesi” dasturi izchil amalga oshirildi. Dastur doirasida “Biznesga birinchi qadam”, “Yoshlar uchun ish o'rinlari”, “Innovatsion yoshlar” kabi loyihalar yo'lga qo'yildi. Yil yakuniga kelib, mazkur tashabbuslar yoshlar bandligini ta'minlashda muhim o'rin egalladi. Dastur orqali yuz minglab yigit-qiz o'zini ish bilan ta'minlash yoki doimiy daromad manbaiga ega bo'lish imkoniyatiga erishdi.

Bu jarayonda “Aloqabank”ning “yoshlar banki” sifatida faoliyat yuritgani ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bank yosh tadbirkorlar uchun eng yaqin moliyaviy hamkor sifatida xizmat qilib, ularning biznes loyihalarini amalga oshirishda asosiy tayanchga aylandi. Natijada 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar uchun qo'shimcha o'n minglab ish o'rinlari ochildi.

Muhimi, 2025-yilda yoshlarni qo'llab-quvvatlash jarayoni faqat tayyor biznes rejalarni moliyalashtirish bilan cheklanmadi. Yoshlarda biznes reja tuzish, startup loyihalarini ishlab chiqish, bozorni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Yil davomida faoliyat boshlagan “Yosh tadbirkorlar” raqamli platformasi orqali onlayn treninglar o'tkazildi, mahsulot va xizmatlar uchun raqamli bozor shakllantirildi, kraudfanding mexanizmlari joriy etildi.

Yoshlarga berilgan ishonch tashabbusni, tashabbus esa iqtisodiy harakatni paydo qildi.

Faollikka tayanayotgan yo'l

2025-yil mamlakat taraqqiyotida faollikka tayanayotgan yangi yondashuvlar mustahkamlangan yil sifatida yakunlandi. O'tgan yilda chiqqan qarorlar, amalga oshirilgan

islohotlar va belgilangan ustuvor vazifalar jamiyatda harakat, tashabbus va mas'uliyatni rag'batlantirishga qaratildi. Ana shu jarayonlarning mantiqiy ifodasi sifatida 19-mart kuni davlatimiz rahbarining kichik va o'rta biznes vakillari bilan uchrashuvi muhim siyosiy voqea sifatida yodda qoldi.

Yil yakunlariga xos jihat shundaki, mazkur uchrashuvda tadbirkorlarga yaratilayotgan imkoniyatlar umumiy yo'nalish sifatida emas, balki aniq mexanizmlar orqali belgilab berildi. 2025-yildan kichik biznes uchun 300 million so'mgacha kredit ajratila boshlashi, shuningdek, faoliyati kengayib, kichik yoki o'rta korxonaga aylangan tadbirkorlarga ushbu mablag'ning 150 million so'mini garovsiz taqdim etish tartibi faollikni rag'batlantirishda muhim qadam bo'ldi. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 50 million so'mgacha garovsiz kredit berish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Uchrashuvda tadbirkorlik faoliyatini tugatish masalasiga ham yangicha yondashuv bilan qaralishi bildirildi. Endi oxirgi uch yillik aylanmasi 10 milliard so'mdan oshmagan va soliqdan qazri bo'lmagan korxonalarni ixtiyoriy tugatishda tekshiruv o'tkazilmasligi belgilandi. Ushbu qaror tadbirkorlar uchun ortiqcha ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish va yangi yo'nalishni tanlash imkoniyatini kengaytirdi.

Shu bilan birga, 2028-yil 1-yanvargacha qadar qo'shimcha qiymat solig'i va foyda solig'i stavkalari oshirilmagligi hamda kichik va o'rta biznesga qo'shimcha talab va majburiyat yuklaydigan me'yoriy hujjatlar qabul qilishga uch yillik moratoriy e'lon qilinishi tadbirkorlik faoliyati uchun barqaror qoidalar shakllanganini ko'rsatdi. Bu esa yil davomida rejalashtirish va harakat qilish uchun aniqlikni ta'minladi.

Fermerlar uchun chiqarilgan qarorlar ham yil sarhisobida alohida ahamiyatga ega. Soliq majburiyatini o'z vaqtida bajara olmagani tufayli yig'ilib qolgan 1 trillion so'mlik penyani undirish uchun kechilishi qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar uchun muhim yengillik bo'ldi va ularning keyingi harakatiga yangi imkoniyatlar ochdi.

Mazkur uchrashuv 2025-yilda qilingan ishlarga sarhisob bo'lish bilan birga, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashda faollikka tayanayotgan yo'l uzluksiz davom etishini ko'rsatdi. Bu yo'lga davlat sharoit yaratadi, tadbirkor esa harakat qiladi.

2025-yil avgustda davlatimiz rahbari Yangi Toshkentda tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi. Mazkur uchrashuv raqamlar bilan emas, balki har bir tadbirkorning yurtimiz taraqqiyotidagi o'rni va mamlakatning kelajak yo'nalishlari bilan bog'liq tahliliy fikrlar bilan yodda qoldi. Kelgusi rivojlanishning shiddatini tushunish uchun bu muloqotni faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar majmuasi sifatida emas, balki ijtimoiy va falsafiy kontekstda ham baholash zarur. Chunki har bir investitsiya, har bir yangi korxona nafaqat moddiy qiymat, balki

inson va jamiyatning ma'naviy o'sishi uchun imkoniyatdir.

O'tgan to'qqiz yilda iqtisodiyotning ko'p-lab tarmoqlari yangidan tashkil etildi. Bu davrda 230 milliard dollar investitsiya kirib keldi. Shundan 120 milliard dollardan ortig'i xorij sarmoyasi. 2025-yilning birinchi yarim yiligidagi mamlakatimiz iqtisodiyoti 7,2 foiz o'sdi. Biznes yuritishdagi qulayliklar natijasida tadbirkorlar ko'payib, faoliyati kengayib bormoqda. Masalan, 1600 ta mikrokorxona bir yilda aylanmasini 10 milliard so'mdan oshirib, birdan o'rta korxonaga, 143 tasi esa 100 milliard so'mdan oshirib, yirik korxonaga aylandi. Yana 122 ta kichik korxona yirik biznes safiga qo'shildi.

Biznesni “soya”dan chiqarish natijasida 139 ming korxonadagi ish o'rinlari 811 mingtaga ko'paydi, 273 mingta korxona ish haqi fondini 22 foiz oshirdi. 2024-yili xususiy sektorda o'rta oyluk 4 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 5 million so'mga yaqinlashdi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy farovonlikka erishishda inson kapitalining ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.



Ilk ochiq muloqotdan buyon tadbirkorlarning mingga yaqin tashabbusi qonunchilikka kiritilgani qayd etildi. O'tgan yilgi muloqot beshinchisi bo'ldi. Unga tayyorgarlik davomida 26 yo'nalishning 7000 ga yaqin vakili bilan uchrashuvlar o'tkazildi. “Koll-markaz” orqali ham 13 mingdan ziyod murojaat va taklif qabul qilindi. Bu jarayon iqtisodiy demokratiyaning amaliy ko'rinishi bo'lib, davlat va tadbirkorlar o'rtasidagi ochiq muloqot falsafasini yaqqol ko'rsatdi.

Muloqotda davlatimiz rahbari tadbirkorlikning boshqa yo'nalishlari bo'yicha ham yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, qisqa muddatda va tez daromad beradigan ish o'rinlari ochishda eng samarador yo'nalishlardan biri bo'lgan xizmatlar sohasi jadal rivojlantirildi. Turizmini rivojlantirish bo'yicha yangi dastur boshlanadi. Kelgusi uch yilda mehmonxona va turizm maskanlari tashkil qilish uchun jami 5000 gektar yer auksionga chiqariladi. Bunda mehmonxona qurmoqchi bo'lgan tadbirkorlardan yerlarni sotib olish uchun to'lov undirilmaydi. Evaziga davlat shu summa bilan loyihaga ulushdor bo'lib kiradi.

Tadbirkorlar 10 yil ichida istalgan paytda bu ulushni qayta sotib olishi mumkin. Agar tadbirkor yer qiymatini boshida to'layman desa, 20 foiz chegirma beriladi. Mehmonxona qurish uchun 7 yil muddatga 2 yillik imtiyozli davr bilan kredit ajratiladi. Bu tadbirkorlikni rag'batlantirish orqali ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishning aniq mexanizmidir.

Shuningdek, mahalliy mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari o'rtasida

“Biznesni “soya”dan chiqarish natijasida 139 ming korxonadagi ish o'rinlari 811 mingtaga ko'paydi, 273 mingta korxona ish haqi fondini 22 foiz oshirdi. 2024-yili xususiy sektorda o'rta oyluk 4 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 5 million so'mga yaqinlashdi.

tanlovlar o'tkazilishi va mukofotlar bilan rag'batlantirilishi biznesda raqobat va sifatni oshirishga xizmat qiladi.

Biznes vakillarida qo'shimcha joy olishga ehtiyoj borligiga qaramay, davlat aktivlari ijaraga berilishi, soliq va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimlari takomillashirilishi, yosh tadbirkorlar uchun startaplarni qo'llab-quvvatlash choralarini, “Biznesni 15 daqiqada boshlash” tamoyili va investitsiya kodeksi kabi islohotlar iqtisodiy faollikni yangi bosqichga olib chiqadi. Bu jarayonda asosiy e'tibor

insonga, uning tashabbusi va ijtimoiy mas'uliyatiga qaratilgan.

Jamiyatning rivojlanishi va iqtisodiyotning barqarorligi faqat moddiy ko'rsatkichlar orqali baholalanmaydi. Bu muloqot har bir tadbirkor va har bir investitsiya ortida jamiyatga, inson qadr-qimmatiga, bilim va texnologiyalarga investitsiya borligini ko'rsatdi. Shu bois, Prezidentimizning tadbirkorlikni rag'batlantirish strategiyasi iqtisodiyotni faqat raqamlarda emas, balki inson hayoti sifatida ham tahlil qilishga imkon beradi.

Muloqot davomida markaziy va hududiy studiyalardan qatnashgan tadbirkorlar o'z mulohaza va takliflarini bildirdi. Muammolar muhokama qilinib, ular bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berildi. Bu jarayon ochiqlik, hamkorlik va zamonaviy iqtisodiy falsafaning uyg'unlashgan namunasi sifatida tarixga kirdi.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va investitsiya muhitini yaxshilash nafaqat iqtisodiy strategiya, balki jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini rivojlantirish vositasi sifatida ham ko'rinadi. Har bir tadbirkor faqat biznes bilan shug'ullanmay, o'z g'oyasi, tashabbusi va iqtidori orqali kengayib barpo etadi.

Ishonch va erkinlik muhitida tadbirkor har bir g'oyasi uchun mas'ul bo'ldi, ammo bu mas'uliyat ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi. Biznes, ta'lim, sog'liqni saqlash va innovatsiya sohalaridagi islohotlar esa faqat iqtisodiy natija emas, balki inson potentsiali va ijtimoiy hayot sifati uchun ham muhim qadam.

Tadbirkorlik faqat daromad topish vositasi emas, balki intellektual va ma'naviy yangilanish, innovatsiya va ijtimoiy mas'uliyat uyg'unligini namoyon etadigan jarayondir. Har bir startup, har bir yangi loyiha va har bir innovatsiya bu — mamlakatning kelajakka ishonchi va salohiyatining ko'rinishi. Shu tariqa tadbirkorlik va davlatning qo'llab-quvvatlovi birgalikda barqaror, samarali va insoniy taraqqiyot yo'lidagi muhim falsafiy poydevorga aylandi.

Umuman olganda, davlat va tadbirkorlar o'rtasidagi hamkorlik, ochiq muloqot va innovatsion islohotlar nafaqat iqtisodiy tarmoqlarning o'sishiga, balki jamiyatdagi faol, mas'uliyatli va tashabbuskor insonlar avlodini tarbiyalashga xizmat qilayotgani anglashilmoqda. Shunday qilib, tadbirkorlik faqat pul va mahsulot orqali emas, balki har bir insonning g'oyasi, intilishi va ijtimoiy hissi orqali ham rivojlanadi.

2025-yil bizga yana bir marrani ko'rsatdi: iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi — raqamlar va hisobotlardan tashqari, inson ruhi va ijtimoiy munosabatlar bilan uyg'unlashganda haqiqiy ma'noga ega bo'ladi. Shu bilan birga, kelgusi yillarga qaratilgan yangi strategiyalar va investitsiya tashabbuslari taraqqiyot poydevoriga mustahkamlaydi.



Yangicha yondashuvlar



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH
UCHUN
QR-KODNI SKANER
QLING!



TABIAT VA INSON: BIOXILMA-XILLIKNI TA’MINLOVCHI ZANJIR

Yurtimizning o‘ziga xos jonli organizmlari, biologik boyliklarini asrab-avaylash, bioekologik barqarorlikni ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda esa O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Zoologiya institutining alohida o‘rni bor. Institut direktori, biologiya fanlari doktori, professor Baxtiyor XOLMATOV bilan suhbatimiz mamlakat va mintqa uchun eng dolzarb zoologik, bioekologik muammolar va ularni hal etishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar haqida bo‘ldi.



— O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Zoologiya instituti mamlakatimiz hayvonot olami bo‘yicha asosiy ilmiy markazdir, — deydi Baxtiyor Xolmatov. — Faqat hayvonlar ro‘yxatini tuzish emas, balki fauna holatini baholash, xavf darajasini aniqlash, monitoring qilish ham faoliyatimizning asosiy yo‘nalishlaridan sanaladi. Shundan kelib chiqib, davlat fauna kadastri tuzish, biotoplarni kartalashtirish, fotoqopponlar orqali kuzatuvlar, yo‘llarda “xavfli nuqta”larni aniqlash va ekologik yumshatish choralari (ekoo‘tkazgichlar, tezlikni cheklash) hamda indikator turlar monitoringi olib borilyapti.

Faunamizni kompleks o‘rganish, hayvonot dunyosi obyektlarining zamonaviy holatini baholash va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, yovvoyi hayvonlarning yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan turlari bo‘yicha davlat kadastri va O‘zbekiston Qizil kitobini yuritish vazifasi ham bizning zimmamizda. Bu ish faqat “Qaysi tur qayerda bor?” emas, balki “Qaysi hududni saqlab qolsak, butun ekotizimni saqlaymiz?” degan strategik savolga javob berishga ko‘maklashadi. Bioxilma-xillik mamlakatning genetik xazirasi, ekologik barqarorligi va oziq-ovqat xavfsizligidir. Agar fauna yo‘qolsa, undan keyin o‘simliklar, tuproq, iqtisodiyot, madaniyat yo‘qoladi. Shu bois, institutimiz maqsadi tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanatni saqlash hamdir. Binobarin, kelajak ekotizimi har bir qushning sayrash, har bir sutemizuvchining qadam izidan, har bir tirik organizmning genidan boshlanadi.

— **Bioxilma-xillikni saqlashda institutning ilmiy tavsiyalari va loyihalari nimadan iborat?**

— Institut mutaxassislari bioxilma-xillikni muhofaza qilishga qaratilgan milliy hujjatlar, jumladan, Biologik xilma-xillikni saqlash milliy strategiyasi (NBSAP), ekologik dasturlar va xalqaro hisobotlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. Bu tavsiyalar qaysi turlar ustuvor muhofazaga muhtojligi, qaysi hududlar “ekologik muhim zona” deb tan olinishi va resurslar qay tarzda taqsimlanishi kerakligini aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Institutning asosiy vazifalaridan yana biri kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlar holatini baholashdir. Turlar areali, populyatsiya trendlari, tahdid omillari va muhofaza choralari bo‘yicha berilgan ilmiy asoslangan xulosalar ularni Qizil kitobga kiritish, maqomini o‘zgartirish yoki himoya mexanizmlarini kuchaytirishda davlat organlari uchun me‘yoriy asos bo‘ladi.

So‘nggi yillarda institutimizda indikator turlar va ekotizim mezonlari asosida muhim ekologik hududlar (Key Biodiversity Areas, KBA)ni belgilash bo‘yicha ishlanmoqda. Bu yondashuv resurslarni samarali yo‘naltirish, ya‘ni bir hududni muhofaza qilib, butun ekotizimni saqlab qolish imkonini beradi.

Xalqaro hamkorlar bilan qor qoploni va boshqa hayvon turlari bo‘yicha amaliy muhofaza dasturlari ishlab chiqildi. Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi bilan birga kamyob turlar va muhofaza hududlari bo‘yicha milliy geoma‘lumotlar bazasi yaratildi. Bu tizim ekologik ekspertiza, hududiy rejalashtirish va fauna monitoringida qaror qabul qilishni soddalashtiradi.

Amudaryo deltasi, Sudochoye va boshqa botqoq hududlarda o‘tkazilgan ekspeditsiyalar orqali suv qushlari, gerpetofauna va sutemizuvchilar populyatsiyalarining hozirgi holati baholandi.

Amfibiya va reptilyalar uchun birinchi milliy KHA (Key Herpetological Areas) xaritasi ishlab chiqilmoqda. Bu gerpetofauna muhofazasida O‘zbekistondagi dastlabki tizimlashtirilgan yondashuvdir.

Bioxilma-xillikni himoya qilish faqat qonun va tadqiqot bilan emas, balki jamiyat ongi bilan ham bog‘liq jarayon. Shu maqsadda bu boradagi ishlar ancha faollashdi. Shuningdek, mutaxassislarimiz tomonidan Markaziy Qizilqum milliy tabiat bog‘i uchun hududiy chegaralar, koordinatlar, tabiiy resurslar tavsifi va antropogen bosimga uchrayotgan hududlar, migratsiya yo‘llari, endemik turlarning qo‘nim va ko‘payish joylari ko‘rsatilgan to‘liq ekologik asosnoma ishlab chiqildi.

Ko‘p bosqichli kadastir va GIS tahlillari amalga oshirilib, himoyaga muhtoj mintaqalarning aniq kartasi tuzildi, ularning biologik ahamiyati, mavjud tahdidlar va ustuvor muhofaza choralari belgilab olindi. Bu jarayonda 18 ta tematik geoma‘lumot qatlami, yuzlab maydon kuzatuvlari hamda tarixiy manbalardan olingan o‘nlab ma‘lumotlar bir tizimga solindi.



Tadqiqotlar, shuningdek, ayrim hududlarda antropogen bosim, xususan, xo‘jalik faoliyati, yo‘l infratuzilmasi va iqlim omillari kuchayib borayotganini ko‘rsatdi. Shu tufayli yangi himoya hududlari barpo etish nafaqat fauna, balki mahalliy tabiiy landshaftlarni asrab qolishda ham dolzarb ahamiyatga ega.

— **Institutda qilinayotgan tadqiqotlar ko‘proq qaysi yo‘nalishlarni qamrab olmoqda va amaliyotda qay darajada qo‘llanilyapti?**

— Barcha fundamental tadqiqot natijalari qishloq xo‘jaligi, veterinariya va atrof-muhit muhofazasi sohalariga to‘g‘ridan to‘g‘ri joriy etilmoqda. Bularga misol sifatida qishloq xo‘jaligi ekinlariga kuchli zarar keltiradigan ko‘sak qurtiga qarshi biologik preparat yaratilganini keltirish mumkin. Ko‘sak qurti g‘o‘za va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari zararkunandasi hisoblanadi. Ularga qarshi yaratilgan “HAVIR” biologik preparati sinovi Toshkent, Sirdaryo, Jizzax va Farg‘ona vodiysi fermer xo‘jaliklarida o‘tkazildi hamda samaradorligi qayd etildi.

Mazkur biologik preparatning afzalligi shundaki, ko‘sak qurti sonini iqtisodiy zarar keltirish chegarasidan ortmaydigan darajada nazorat qiladi, ya‘ni haddan ziyod ko‘payishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ekologik jihatdan toza. Faqat ko‘sak qurtiga ta‘sir qiladi. Foydali hasharotlar va issiqqonli hayvonlar uchun zararsiz.

— **Bugun dunyo bo‘yicha noyob genlar, turlar va ekotizimlar jiddiy yo‘qolish xavf ostida. Ularni saqlash borasida qanday choralar ko‘rilyapti?**

— Aytib o‘tganimizdek, biologik xilma-xillik ekologik barqarorlik, iqtisodiy xavfsizlik va jamoat salomatligining asosiy omili hisoblanadi. Shu bois, O‘zbekistonda turlarni asrash va monitoring qilishga qaratilgan qator muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Mutaxassislarimiz tomonidan buxoro kiyigi, sayg‘oq, to‘qay qushlari, sirtlon kabi turlar areali va populyatsiyasi muntazam o‘rganilib, Qizil kitob uchun ekspert xulosalari tayyorlanmoqda. Monitoring natijalariga ko‘ra, ayrim turlarda barqarorlashish tendensiyasi kuzatilmoqda.

To‘qay o‘rmonlari, Amudaryo deltasi, Qizilqum cho‘li va Nurota tog‘ tizmalari kabi ekotizimlar mamlakat bioxilma-xilligining asosiy hayot arteriyalaridir. Ushbu hududlardagi kamyob turlar biotop holati baholalanib, himoyalangan tabiat hududlari chegaralarini belgilash va muhofaza rejimini kuchaytirish bo‘yicha takliflar berilmoqda. Qor yo‘lbarsi, buxoro kiyigi, suv qushlari va gerpetofauna turlari holati va migratsiya yo‘nalishlari aniqlanmoqda. Olingan ma‘lumotlar asosida tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Institut huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan hamkorlikda noyob turlarga qarshi jinoyatlar bo‘yicha ekspert xulosalarini taqdim etmoqda. Aynan shu yo‘nalishdagi tahliliy va amaliy ishlar samarasi o‘laroq, institutimiz xalqaro miqyosda e‘tirof etilib, “Clark R. Bavin Wildlife Law Enforcement Award” mukofoti bilan taqdirlandi.

— **Bu qanday mukofot?**

— “Clark R. Bavin Wildlife Law Enforcement Award” jahon tabiatini muhofaza qilish sohasidagi eng nufuzli mukofotlardan biridir. Mukofot AQSHning afsonaviy ekolog-huquqshunosi Klark R. Bavin nomi bilan bog‘liq. U noqonuniy hayvonlar savdosi bilan keskin kurashgan, o‘ttiz yil davomida brakonyerlikka qarshi ilg‘or huquqiy mexanizmlar yaratgan va global monitoringni yangi bosqichga ko‘targan shaxs. Mukofot dunyo bo‘ylab eng samarali ekologik huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar va olimlarga beriladi.

Mukofotning Zoologiya institutiga yetib kelishi mamlakatimizda atrof-muhit, tabiat muhofazasi, ilmiy markazlar va faol ekologlar ishi xalqaro maydonda tan olinayotganidan dalolat.

— **Iqlim o‘zgarishi va zoologiyaning o‘zaro bog‘liqligi haqida gapirsangiz.**

— Iqlim o‘zgarishi, havo ifloslanishi va qurg‘oqchilik sharoitida atrof-muhit barqarorligini ta‘minlashda o‘simlik qoplamini tiklash muhim omillardan biri. Biroq zoologiya nuqtayi nazaridan qaraganda, har qanday turdagi daraxtni ekish emas, balki mahalliy, tabiiy muhitga mos turlar qo‘llanilishi yuqori samara beradi. Mahalliy daraxtlar ming yillar mobaynida shu hududdagi qushlar, hasharotlar va mayda sut emizuvchilar bilan birga rivojlangan. Shu bois, ular bargi, shirasi, changi va tana qismi orqali turli jonzotlar uchun barqaror ozuqa va yashash sharoiti yaratadi. Masalan, mahalliy daraxtlarda hasharotlar tur jihatdan ko‘proq bo‘ladi, bu esa qushlar va boshqa kichik hayvonlar populyatsiyasi uzluksizligiga xizmat qiladi. Shu yo‘l bilan biologik zanjir ta‘minlanadi. Begona, introdutsent daraxtlar bunday tabiiy bog‘lanishga ega emas. Ularda hasharotlar kam bo‘lishi, tuproq xossalari o‘zgartirishi yoki mahalliy o‘simliklarni siqib chiqarishi mumkin. Bu holat fauna kamayishiga, tabiiy muhit birxillashishiga va ekotizimning umumiy zaiflashishiga olib keladi. Shu ma‘noda, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda mahalliy turlarni ekish nafaqat havo sifatini yaxshilaydi, balki tabiiy biologik hayotni tiklaydi, jonzotlar o‘rtasidagi ozuqa zanjirini mustahkamlaydi va ekotizim barqarorligini ta‘minlaydi. To‘g‘ri tanlangan bir tup mahalliy daraxt kelgusi o‘n yillar davomida ko‘plab qushlar, hasharotlar va kichik hayvonlar hayotiga asos bo‘ladi. Shuning uchun umumiy yondashuv o‘miga tabiat talab qiladigan oqilona yo‘l mahalliy, iqlimga chidamli va jonzotlar bilan bog‘langan turlarni ekishdir.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.

Munosabat

Murojaatnoma yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarini barqaror rivojlantirishga qaratilgan aniq maqsad hamda vazifalarni o‘z ichiga olgani bilan ahamiyatli. Jumladan, unda suv resurslaridan oqilona foydalanish, bu borada tejankor texnologiyalarni keng joriy etish, sug‘orish tizimlarini takomillashtirish, shuningdek, mavjud suv inshootlarini modernizatsiya qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Ta‘kidlanganidek, ushbu yo‘nalishda kelgusi uch yilda qiymati 5,5 milliard dollar bo‘lgan yirik dastur amalga oshiriladi. Bu dastur qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish, iqlim o‘zgarishlari ta‘sirini yumshatish hamda ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Murojaatnomada qayd etilganidek, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish 2,6 million gektar yer maydonini qamrab oladi. Natijada yiliga 2,5 milliard kub metr suv tejaliishi, atmosferaga chiqariladigan 200 ming tonna bug‘ gazi kamayishi kutilmoqda. Bu ko‘rsatkichlar mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy samarasini yaqqol namoyon etadi.

Belgilangan vazifalar esa jamoamiz tomonidan katta mas‘uliyat va faol qo‘llab-quvvatlash bilan qabul qilindi. Zero, ushbu strategik yo‘nalishlar universitet oldida turgan asosiy vazifalar — muhandislik va agrotexnologiya sohalarida zamonaviy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadlari bilan uzviy bog‘liq.

Bugungi kunda universitet ta‘lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etib, talabalarga nazariy bilimlar bilan bir qatorda suvni tejaydigan texnologiyalar, innovatsion sug‘orish tizimlari, “yashil iqtisodiyot” va ekologik barqarorlik yo‘nalishlarida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Bu esa bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Murojaatnomada talabalar va yosh olimlarning innovatsion loyihalari, startaplar hamda ilmiy-tadqiqot ishlaridagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash masalalariga ham alohida to‘xtalib o‘tiladi. Bu esa universitetda ilmiy salohiyatni yanada oshirish, talabalarning amaliy loyihalarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Ayniqsa, suv resurslarini boshqarish, agrotexnologiya va ekologik barqarorlikka qaratilgan loyihalar ahamiyati tabora ortib bormoqda.

Shaharu qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, “yashil” hududlarni kengaytirish, sug‘orish va drenaj tizimlarini

Birlashsak — katta kuchmiz

YUKSAK MARRALARGA DAXLDORLIK

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan navbatdagi Murojaatnomasi — mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi holati va ertangi marralarini aniq belgilab beradigan o‘ta muhim tarixiy-siyosiy hujjat bo‘ldi. U hayotiy dastur sifatida xalqimizga har tomonlama manfaatli hamda yurtimiz kelajagiga bevosita daxldor. Bunday g‘oya, tashabbus va rejarlar har birimizning faoliyatimiz samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Davlatimiz rahbari nutqida noyob institut bo‘lgan mahallaning o‘mi yanada teran ifodalab berilgan holda 2026-yil yurtimizda “**Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili**”, deb e‘lon qilindi. Ya‘ni islohotlar natijasi har bir xonadonda seziladigan tizim yaratiladi. Prezidentimizning mazkur tashabbusi barchamizning e‘tiborimizni yanada ko‘proq mahallaga qaratmoqdaki, buning mohiyati islohotlar sizni biz yashayotgan uydin, ko‘chadan va mahalladan boshlanayotganini aks ettiradi. Bu — odamlarning kundalik tashvishlarini kamaytirish, turmush darajisini yuksaltirish yo‘lidagi eng to‘g‘ri qadam.

Murojaatnomada belgilanganidek, ayolni o‘z muammosi bilan yolg‘iz qoldirishga hech kimning haqqi yo‘q. Shu bois, ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha Prezidentimiz tomonidan respublika muvofiqlashtiruvchi kengashga barcha davlat idoralari, keng jamoatchilikni safbarbar qilgan holda bunday salbiy holatlarga barham berish bo‘yicha samarali ishlaydigan tizim yaratish topshirilgani, ayniqsa, parlament, fuqarolik jamiyati institutlari ham bu jarayonlarda faol ishtirok etishga chaqirilgani burch va mas‘uliyatni yanada oshirdi. Zero, zo‘ravonlik — millat qiyofasiga aslo yarashmaydi. Ushbu murojaatning zamirida qat‘iy bir haqiqat yotibdi: ayol va bola — davlat hamda jamiyat himoyasidadir.

Bugungi umumjahon globallashuv sharoitida davlatlarning raqobatbardoshligi tabiiy resurslar yoki sanoat qudrati bilangina emas, balki, eng avvalo, inson kapitalining sifati bilan belgilanmoqda. Shu ma‘noda, sifati ta‘lim va ilm-fanga bo‘lgan e‘tibor davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanadi.



Rasul TO‘RAYEV,
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti rektori, professor

qayta tiklash kabi yo‘nalishlarda universitetimizning amaliy loyihalarni hayotga tatbiq etish imkoniyatlari mavjud. Sanoat, qishloq xo‘jaligi va infratuzilma sohalariga yo‘naltirilayotgan investitsiya dasturlari zamonaviy laboratoriyalar, agrotexnologiya parklari, tajriba maydonlari hamda samarali stajirovka tizimini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xalqaro hamkorlik va akademik mobillik esa ilg‘or tajribalarni ta‘lim jarayoniga joriy etish orqali ilmiy salohiyatni yanada mustahkamlaydi. Shu ma‘noda, Murojaatnomani yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ishonchli va aniq yo‘l xaritasiga qiyoslasak ayni muddaodir. Unda ko‘rsatilgan ustuvor yo‘nalishlar nafaqat bugungi kun, balki mamlakatimiz kelajagi uchun ham o‘ta dolzarb va zarur. Murojaatnomada keltirilganidek, bugun sanoatda avtomatlashgan liniyalar, agrar sohada aqlli texnologiyalar, transportda intellektual boshqaruv kundalik hodisaga aylanib bormoqda.

Hozirgi vaqtda yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun‘iy intellekt ta‘sirida dunyoda ish o‘rinlarining soni, shakli va mazmuni keskin o‘zgarimoqda. Yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi to‘liq avtomatlashtiriladi, 50 foizi bo‘yicha esa yangi malakalar talab qilinadi. Bu zamonaviy davrning tabiiy ehtiyoji. Shunday ekan, universitetimiz jamoasi ilmiy va amaliy ishlar bilan bu jarayonda faol ishtirok etadi, albatta.



Mohira BOLTAYEVA,
Toshkent shahridagi Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning kimyo fani o‘qituvchisi

Mamlakatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, iste‘dodli yigit-qizlar ta‘lim, ilm-fan, madaniyat, san‘at va sport sohalarida erishayotgan yutuqlari bilan Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shmoqda. Bu yutuqlarning eng yorqin ifodasi esa xalqaro fan olimpiadalarida qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlardir.

So‘nggi yillarda men kabi o‘zbekistonlik o‘quvchi va talabalar xalqaro maydonda yuksak natijalarga erishib, mamlakatimiz ta‘lim tizimining salohiyatini butun dunyoga namoyish etishga harakat qilayotir. Birgina 2025-yilda xalqaro fan olimpiadalarida qo‘lga kiritilgan 51 ta oltin, 101 ta kumush va 126 ta bronza medali fikrimizning yaqqol ifodasi.

Dunyoda eng qimmatbaho mahsulot — bilim. Shu bois, inson kapitalini rivojlantirish, yuqori malakali va bilimli kadrlarni tayyorlash har qanday mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega. Bilim va salohiyatli kadrlar milliy iqtisodiyotning asosi, ilmiy-texnik taraqqiyotning poydevori va davlatning xalqaro maydondagi obro‘-sini mustahkamlovchi eng muhim omildir.

Mamlakatimizda nufuzli xalqaro olimpiadalarining o‘tkazilishi ilmu fanga qiziqishi bo‘lgan barcha o‘zbekistonlik yoshlarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazish imkoniyatini yaratadi. Bunda o‘quvchi yoshlarimiz nafaqat o‘z qobiliyatini namoyon qiladi, shu bilan birga, mamlakatimizning qadru qimmatini va xalqaro maydondagi obro‘-e‘tiborini himoya qilish kabi katta mas‘uliyatni ham angliyadi.

2026-yil 10-yanvar, 6-son

www.yuz.uz

yuz.uznews



TIRIK TARIX

Mulohaza

Inson tafakkuri, qalbi va dunyoqarashi shakllanishida san'atning turli ko'rinishlari hamisha muhim o'rin tutib kelgan. Bular orasida kino alohida ahamiyatga ega. U vaqt va makon bilan chegaralanmagan o'ziga xos ko'zgu bo'lib, inson ruhiyatiga chuqur kirib boradi, tafakkur va his-tuyg'ularni harakatga keltiradi. Kino orqali millatning o'tmishi, buguni va kelajagi haqidagi tasavvur shakllanadi, jamiyatning ichki holati ekranda aks etadi.

Bugun kino ijtimoiy ongni shakllantirish va tarbiyalashda ham salmoqli o'rin egallamoqda. Har bir film tomoshabin bilan go'yo sukut ichida muloqotga kirishadi, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida mushohada yuritishga chorlaydi, axloqiy va estetik didning yuksalishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, kino oddiy tomosha emas, balki jamiyatning ma'naviy holatini belgilab beruvchi omilga aylanib bormoqda.

Bugungi globalleshuv sharoitida "ommaviy madaniyat"ning tezkor va yuzaki qadriyatlari jamiyat ongiga tobora chuqur singib bormoqda. Bu jarayon insonni tarixiy ildizlaridan uzoqlashtirib, faqat bugungi manfaat va lahzali zavq-shavqqa moyil qilmoqda. Natijada milliy g'urur, o'r-nomus, vatanparvarlik va o'tmisha hurmat kabi tushunchalar ayrim hollarda ikkinchi darajali qadriyatlarga aylanib qolish xavfi yuzaga kelmoqda.

Aynan shunday murakkab ma'naviy muhitda jamiyatning tarixiy xotirasini tiklash, milliy o'zlikni anglash va avlodlar o'rtasidagi ma'naviy uzviylikni saqlab qolish masalasi o'ta muhim. Bu vazifani samarali ado eta oladigan eng ta'sirchan vositalardan biri esa kino san'atidir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Agar tariximizni dunyoga tarannum etmoqchi bo'lsak, xalqimizning milliy g'ururini ko'tarmog'chi bo'lsak, buni birinchi navbatda kino yordamida amalga oshirishimiz kerak". Shu nuqtayi nazardan, kino nafaqat o'tmish va hozirni bog'lovchi ko'pri, balki kelajakni shakllantiruvchi ijtimoiy va ma'naviy maydon sifatida ham muhim.

So'nggi yillarda kino sohasida qilingan ishlar, albatta, tahsinga loyiq. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan birgina "Tirik tarix" turkumidagi filmlar loyihasi ko'lami va qamrovi bilan kino mutaxassislari va muxlislari lol qoldirmoqda. Mazkur loyiha 2024-2030-yillarga mo'ljallangan strategik dastur bo'lib, eng qadimgi o'tmishdan yaqin tarixgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. U nafaqat shonli o'tmishimizni chuqur anglash, balki kelajakka ishonch bilan dadil qadam qo'yish, yoshlarni chinakam vatanparvar insonlar qilib tarbiyalash va Uchinchi Renessans po'ydevorini barpo etishga katta turtki bo'ladi. Kino orqali tarixiy xotira, madaniy meros va milliy qadriyatlarini o'rganish, tomoshabin bilan his-tuyg'u va tafakkur orqali bog'lanish imkonini beradi. Shu bois, san'atning bu yo'nalishi nafaqat ko'ngilochar vosita, balki inson ruhiyatini tarbiyalash va milliy ongni mustahkamlash yo'lidagi kuchli yechim sifatida qadrlanishi lozim.

Bugun kino san'atimizda yaxshi loyihalar tobora ko'paymoqda. Ular bilan nafaqat tarixiy faktlar ekran orqali yetkaziladi, balki tomoshabinning hissiyoti va tafakkuri bilan uyg'unlashadi. Kino bu yerda shunchaki voqeani aks ettirish emas, balki milliy ruhni uyg'otish, yoshlarni o'z tarixi bilan bog'lash, vatanparvarlik va axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash vositasiga aylanadi. Har bir film, har bir sahna asari millat xotirasini mustahkamlash va kelajakni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va professional jamoalarning ishtiroki kino sifatini yangi bosqichga ko'tarish imkonini yaratadi.

Aynan shu nuqtada savol tug'iladi: bugun ekranga chiqayotgan kinolar tomoshabin tafakkuri va ruhiy dunyosida qanday iz qoldirmoqda? Javob

shuki, kino bugun g'oya tashuvchi, ijtimoiy ong va madaniy xabardorlikni shakllantiruvchi ta'sirchan vositalardan biri sifatida namoyon bo'layotir. U insonni axloqiy tanlovlar, hayotiy tajribalar va insoniy qadriyatlar haqida o'ylashga undaydi. Demak, kino tomoshabin bilan ko'zga ko'rinnmas, ammo juda ta'sirchan ma'naviy suhbat olib boradi.

Tomoshabinning ko'ngliga yo'l topgan asarlar

O'zbek kinokartasini deganda ko'z oldimizga, avvalo, "Mahallada duv-duv gap", "Yor-yor", "O'tkan kunlar", "Temir xotin", "Suiyunchi", "Otamdin qolgan dalalar" kabi filmlar keladi. Bu asarlar insonni o'ylantirar, tarbiyalar, qalbni junbushga keltiradi. Ularda hazil ham, dard ham bor. Eng muhimi, tomoshabin ekranda o'zini ko'radi, atrof-muhitini, hayotini, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni anglaydi.

Oradan necha yillar o'tmasin, bu filmlarni yana va yana ko'rish istagi yo'qolmaydi. Go'yo ularga vaqt hukmi o'tmagan, yosh-qarini biredk o'ziga tortadi. Buning asosiy sababi shundaki, ushbu kinolarda o'zbek xarakteri, millatga xos qahramonlik, urf-odat va hayo mezonlari yashab kelmoqda. Bugun ham bunday filmlar ko'payib borayotgani quvonarli hol. Ammo guruh kurnaksiz bo'lmaydi, deganlaridek ayrim xususiy telekanallarda eifraga uzatilayotgan filmlar kishini mushohadaga undaydi. Ularda qahramonlar aksariyat hollarda atayin botir emas — boy, qizlar iboli emas — "zamonaviy", ota-onalar dono emas — kulgili qilib ko'rsatilayotgandek. Natijada ekran ko'zgu bo'lish o'rni qo'ngir bo'lib qolmoqda. Qancha ko'p tomosha qilinsa, asarning "qadri" ham shunga qarab baholanishi esa achinarli hol.

Ana shu jarayon orqali jamiyatga o'zaro ishonchsizlik, shubha va loqaydlik urug'i sochilmoqda. Shu o'rinda taniqli adib Nazar Eshonqulning quyidagi fikrlarini eslash o'rinni: "Axloq, odob, zulm, adolatsizlik, xiyonat, sotqinlik, go'zallik, yovuzlik, mehru shafqat

to'g'risidagi tushunchalar ming yillar mobaynida sinovdan o'tib, xulosalarga aylangan. Ana shu xulosalarning majmui ichimizdagi ilohiy zarra bilan qo'shilib, yaxlitlashib, insoniylik degan katta ustunni paydo qilgan. Insoniylik badanni paxol bilan yashirishdan galsitk taqqungacha bo'lgan masofani bosib o'tgan bashar tarixining eng katta yutug'idir. Uni mensimaslik, manfaat pardasi ortiga surish yoki boshqacha talqin qilish madaniy ongni fojiga olib boradi".

Savol tug'iladi: bugungi kinokartinalar yosh avlodni insoniylik va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qay darajada xizmat qilayapti?



Aksariyat hollarda seriallar xususiy telekanal va studiylar hamkorligi mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Biroq bir necha o'n kishining manfaati uchun butun millat ongiga zarar yetkazish nechog'liq ogqlanadi?

"Fikri yo'q odamning qiyofasi ham bo'lmaydi", deyishadi. Fikr — insonning kimligini belgilab beruvchi mash'al. U o'chgan joyda olomonchilik va johillik kayfiyati ildiz otadi. Bugun kino sohasidagi yuzaki mavzular jamiyatni shu xavf tomon yetaklamoqda.

Shu bois, kino san'ati faqat tomosha uchun emas, balki tarbiya va ma'rifat uchun ham xizmat qilishi shart. U insonni o'ylantirishi, ijtimoiy ongni yuksaltirishi va milliy qadriyatlar bilan bog'lashi lozim. San'atning bu muhim vazifasi tomosha va tarbiya o'rtasidagi muvozanatda namoyon bo'ladi. Ana shu muvozanatni saqlash esa har bir

rejissyor, ssenarist va prodyuserning eng katta mas'uliyatidir.

Biz hali-hanuz "Shum bola"dagi sho'xlik va mehri, "Abdullajon"dagi fantastikani sog'inamiz. Bu filmlar bizni o'zligimizga qaytarib, qalbimizdagi haqiqat bilan yuzlashirgan edi. Afsuski, bugungi aksariyat filmlarda "mashhur bo'l, boy bo'l, istagancha yashagin" degan yolg'on qadriyatlar ustuvor. Natijada oila, vatan, mehr, oriyat, hayo, mehnat kabi tushunchalar sekin-asta siqib chiqarilmoqda. Ularning o'rini shov-shuv, o'zini ko'z-ko'z qilish va ma'nosiz munosabatlarga egallamoqda. Shuning uchun kino san'atiga faqat ko'ngil ochish vositasi emas, balki mas'uliyat sifatida qarash zarur.

Kinoda oltin o'rtaliq naqadar muhim?

Bugun jamiyatda kuzatilayotgan eng xavfli holatlardan biri hayosizlikning ommaviy yoyilib borayotganidir. Bu jarayon san'at, xususan, kino orqali yanada tezlashmoqda. Aksar rejissyorlar ma'naviyatni emas, reytingni mezon qilib olgan. Natijada bachkana, yengil-yelpi, uyatli hazil-mutoyibalarga to'la film va seriallar tomoshabin e'tiborini tortib, chuqur mazmun va ma'naviy qiyamatga ega asarlar soyada qolib ketmoqda.

Zigmund Freyding "Ongsiz odamda uyat bo'lmaydi" degan gapi bu holatga aynan mos keladi. Ong va mas'uliyatdan uzoq ijod natijasida axloqiy me'yorlar buzilgan filmlar ekran yuzini ko'rmoqda. Eng xavfli jihati aksariyatimiz buni oddiy holdek qabul qila boshladik. Bu o'z-o'zidan fojiali manzarani yuzaga keltirmoqda.

Kino — san'at. San'at esa har bir millatning ruhiyati, hayosi va andishasi ifodasidir. O'zbek xalqi asrlar davomida hayo, oriyat, sha'n, oila nomusini yuragida saqlab kelgan. Ayrim zamonaviy filmlarda esa bu qadriyatlar yo'qqa chiqarilmoqda, hatto masxaromuz tasvirlanmoqda. Go'yo kino muhitida "qancha ochiq bo'lsa, shuncha zamonaviy", "qancha shov-shuvli bo'lsa, shuncha ommabop" degan xato qarash ustuvor bo'lib qolgandek.

Aslida, eng kulgili filmlar ham andishani buzmagani, eng romantik sahnalar ham hayo chegarasidan chiqmay, ruhiy ta'sir orqali berilgan. Oltin o'rtaliq degani ham aynan shu — san'atda erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanat.

Bugun hatto bolalar tomosha qiladigan aksariyat filmlarda ham nojoiz ishoralar, shubhali dialoglar ko'payib bormoqda. Bu —

jiddiy muammo. Chunki bugungi tomoshabin — jamiyatning ertangi ma'naviy qiyofasini belgilaydigan avlod. Tarix illatlar ham asta-sekin ko'nikish orqali hayot tarziga aylanishidan dalolat beradi.

G'arb faylasuflaridan biri "Kino bizni ko'rishga o'rgatdi, ammo qarashdan judo qildi", deb bejiz aytmagan. Bugun yaxshi kinolar barmoq bilan sanarli, ma'naviyatdan uzoq asarlar esa bemaza qovunning urug'idek ko'payib ketgan. Bir vaqtlar bunday mahsulotlarga befarq qarash natijasida bugun ular ochiq-oydin ma'yorga aylanib bormoqda.

Albatta, o'zbek kinosi faqat maishiy janjallar bilan cheklanib qolgan deb aytib bo'lmaydi. "Chantrimore", "Suv yoqalab", "Chegaradagi qishloq", "Narigi sohilda qolgan bolalik", "Osmondagi bolalar" kabi mazmunli filmlar ham bor. Ammo ayni paytda ekranlarda aynan ma'naviy bo'shliqni chuqurlashiradigan asarlar ustuvorlik qilayotgani jiddiy o'ylashga majbur qiladi.

Agar kino san'atida oltin o'rtaliq saqlanmasa, u yo ma'naviyatni yemiruvchi qurolga, yo mazmunsiz ko'ngilochar mahsulotga aylanib qoladi. Oltin o'rtaliq esa millat ruhiyati, hayosi va qadriyatlarini bilan zamonaviy ifoda o'rtasidagi muvozanatdir. Ana shu muvozanat saqlangan joydagina kino haqiqiy san'atga aylanadi.

Talabga yarasha taklifmi?

Ijtimoiy tarmoqlarda bunday fikrlar tez-tez uchramoqda: ayrim aktyorlar va ijodkorlar bugungi yengil-yelpi, ma'naviy yuki kam filmlarni "talabga yarasha taklif" deb izohlab, xalq orasida shunday seriallarga ehtiyoj katta ekanini da'vo qilmoqda. Ular bu holatda aybni kino ishlayotganlarda emas balki tomoshabin talabida deb ko'rsatishga uriniyapti.

Ammo shu o'rinda savol tug'iladi: talabni kim shakllantiryapti? Agar yillar davomida tomoshabiniga faqat bachkana, yuzaki, axloqiy me'yorlarni chega surgan mahsulotlar taqdim etilsa, tabiiyki, did ham shu yo'sinda shakllanadi.

Shu ma'noda, o'zbek kino va teatr san'atiga katta hissa qo'shgan Bahodir Yo'ldoshevning quyidagi fikrlari ayni haqiqatni ochib beradi: "Xiyonatlar ichida eng og'iri kasbga qilingan xiyonatdir deb bilaman. Belgilangan muddatda har qanday ishni bitirish mumkin, lekin sifati-chi? Ish buyuruvchiga baribir, u nima bo'lsa-bo'lsin, tezroq "material"ni qo'lga olgisi keladi. Unga zsinning sha'ningiz, nomingiz hech narsani anglatmaydi. "Material" qay ko'rinishda bo'lmasin — xoh sahna, xoh ekran yoki maqola shaklida — fikrga hokim, so'z egasi — siz! O'zingizni qay darajada hurmat qila olasiz, ichki madaniyatingiz ishga bo'lgan munosabatda ko'rinadi. Tabiat baribir

o'z aytganini qiladi: u xo'jako'rsinchi, shoshma-shosharlardan bo'lab o'chini oladi. Oddiy misol, terakning tez o'sadigan navidan uy qurib bo'lmaydi".

Ushbu so'zlar har bir ijodkorni faoliyatiga vijdon ko'zi bilan qarashga undaydi. Albatta, ijod ahli erkin. Ammo bu erkinlikning aniq chegarasi bor va bu xalqning ma'naviyatidir. Agar san'at faqat ko'ngil ochish uchun xizmat qilsa, u san'at emas, oddiy biznes mahsulotiga aylanib qoladi.

Kinoning eng asosiy vazifasi — inson ruhiyatini tarbiyalash. U odamni o'ylantirishi, hayotga boshqacha nazar bilan qarashga undashi, hech bo'lmasa, "Men kimman? Qanday yashayapman?" degan savollarga javob izlashga majbur qilishi kerak. Ana shundaygina kino haqiqiy san'at darajasiga ko'tariladi.

Bugun esa ko'plab film va seriallarda tomoshabinni chuqur fikrlashga chorlaydigan g'oyalar o'rni qo'ngir bo'lib qolmoqda. Natijada janjallar, axloqiy me'yorlarni buzuvchi sahna asarlari ustuvorlik qilmoqda. Bu holat, ayniqsa, yoshlar ongiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Agar kino hayotni barcha murakkabligi, yaxshiligi kamchiliklari bilan xolis aks ettirsa — u rostgo'y. Basharti faqat san'iy ideal hayot, boylik, buzilgan munosabatlar, behayo obrazlar orqali yashashni targ'ib qilsa, niqobga aylanadi.

Millat ma'naviyati faqat so'z bilan emas, avvalo, san'at orqali shakllanadi. Ayniqsa, kinoning kuchi inson qalbiga bevosita ta'sir qilishidir. Shu sababli undan foydalanish ham ulkan mas'uliyat talab qiladi.

Didni kim tarbiyalaydi?

Bolaligimizda biz sevib tomosha qilgan "Charxpalak", "Dev bilan pakana" kabi filmlar reyting uchun olinmagan, nazarimda. Ular insoniylikka chorlagani, xalqona ruhga ega bo'lgani uchun qalblarda qolgan.

Haqiqiy ijodkor hech qachon tomoshabin ortidan quvmaydi. Xalqimizda badiiy estetik did azaldan mavjud. Ammo doimiy ravishda didsiz mahsulotlar berilaversa, did ham shu darajaga tushib qoladi. Keyin esa saviyali asarlar qabul qilinmaydi. Bugungi zamonaviy media muhitida kino nafaqat estetik, balki ijtimoiy va axloqiy kuchga ega fenomenga aylangan. Qanday g'oyalar, qanday qahramonlar ekranda ustuvor bo'lsa, jamiyat ham shu tomon qarab shakllanadi.

Shu sababli kinoni faqat ko'ngilochar vosita sifatida emas, balki millat taqdiriga daxldor, mas'uliyatli ijtimoiy hodisa sifatida baholash vaqti keldi. U ko'zgu bo'ladimi yoki niqob, avvalo, ijodkorning vijdoni, jamiyatning ongi va tomoshabinning didiga bog'liq.

Sardor SHUHRAT o'g'li, jurnalist

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-146.

32015 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 20:30

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.